

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma nusxasi

UDK -----

AKBAROV MUHIDDIN RUHIDDINOVICH

**“QISASI RABG‘UZIY” ASARINING MAVZUVIY TASNIFI VA MATNIY
TADQIQI**

**5A111201 – o‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha magistrlik darajasini
olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: f.f.d. N.Shodmonov

Qarshi - 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. “QISASI RABG‘UZIY” ASARI MANBALARI TAVSIFI.....	7
1. “Qisasi Rabg‘uziy”ning o‘rganilish tarixi	7
2. “Qisasi Rabg‘uziy” manbalari tasnifi.....	11
I bob bo‘yicha xulosa	
II BOB. “QISASI RABG‘UZIY”NING MAVZU VA JANRIY-TARKIBIY	15
TUZILISHI	
1. “Qisasi Rabg‘uziy”ning mavzu ko‘lami	15
2. “Qisasi Rabg‘uziy”ning janrlar tarkibi	29
II bob bo‘yicha xulosa	
III BOB. “QISASI RABG‘UZIY” NUSXALARINING ILMIY-	48
TEKSTOLOGIK TADQIQI	
1. “Qisasi Rabg‘uziy” asarini ilmiy-tekstologik o‘rganish prinsiplari...	48
2. “Qisasi Rabg‘uziy” nusxalaridagi farq va tafovutlar.....	65
III bob bo‘yicha xulosa	
UMUMIY XULOSA.....	71
ILOVA.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	76

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo xalqlari orasida o'zbek xalqi eng ko'p ma'naviy merosga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Bu ma'naviy meros ming yillar davomida xalqimiz uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Ularni xalqimiz uzoq vaqt davom etgan turli tazyiqlarga qaramay bugungi Mustaqillik kunlarigacha saqlab keldi. Mamlakatimiz rahbari Islom Karimov bu haqda shunday deydi: "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"¹.

Xalqimizning ana shunday qadimiy ma'naviy merosidan biri Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridir. U turkiy (o'zbek) adabiyotda qissa janrining ilk namunasi hisoblanadi.

Asarning turli davrlarda ko'chirilgan bir necha qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ular dunyoning turli kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Asarning eng qadimiy qo'lyozma nusxasi XV asrda ko'chirilgan. U Britaniya muzeyida saqlanadi. Ana shu nusxaning faksimelisi asosida matnshunos olim K.Gronbek 1948 yilda Kopengagenda nashr qilingan. Yurtimizda 1990-1991 yillarda hozirga qadar yagona bo'lgan nisbatan to'la nashri ham ana shu faksimeliga asoslangan.

Manbalarda qayd qilinishicha, "Qisasi Rabg'uziy"ning yana bir mo'tabar qo'lyozma nusxasi Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutida saqlanadi. U XV yoki XIV asrda ko'chirilgan deb taxmin qilinadi.

Tadqiqotchining qo'lida asarning Qozonda amalga oshirilgan toshbosma nashr nusxasi saqlanadi. Mazkur ikki nusxani solishtirish asosida "Qisasi Rabg'uziy"ning yanada mukammalroq nusxasini tayyorlash imkoniyati paydo

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. "Ўзбекистон", 1997. 137-б.

bo'ldi. Chunki toshbosmada mavjud o'nga yaqin qissa asarning yurtimizdagi nashrida mavjud emas.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Asarning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX boshlarida Qozon va Toshkent shaharlarida litografiya usulida bir necha marta bosilgani ma'lum. Uning nisbatan to'la teksti birinchi marta rus turkiyshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozonda nashr qilingan deb hisoblanadi. Biroq bu nashr asar yozilganidan ancha keyin ko'chirilgan nusxa asosida amalga oshirilgani uchun til jihatidan asl nusxadan keskin farq qiladi. Mazkur davrda "Qisasi Rabg'uziy"dan ayrim parchalar rus tiliga tarjima qilina boshlagan va P.M.Melioranskiy, S.YE.Malov, N.F.Ostroumov kabi olimlar tomonidan o'quvchilar hukmiga havola qilingan.

O'zbek adabiyotshunosligida N.Mallayev¹, A.Qayumov², H.Karomatov³, B.Sarimsoqov⁴, E.Fozilov⁵, I.Ostonaqulov⁶, H.Safarova⁷, A.Yunusov⁸ va boshqa adabiyotshunoslar "Qisasi Rabg'uziy"ga bag'ishlangan tadqiqotlarini amalga oshirdilar. Bu tadqiqotlar natijasida asarning mavzu ko'lam, janr xususiyatlari, poetik tili va shunga o'xshash boshqa masalalar atroflicha yoritildi.

Otaxon adabiyotshunos N.Mallayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli darslik-tadqiqotida "Qisasi Rabg'uziy"ni davr nuqtai nazaridan bir muncha siqiq tadqiq qilgan bo'lsa, I.Ostonaqulovning "Qisas ar-Rabg'uziy – adabiy asar" mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida uning faqat diniy ruhdagi asargina emas, balki o'nlab adabiy janrlarni o'z ichiga qamrab olgan sinkretik (qorishiq) yirik adabiy manba ekani asoslab berildi.

¹ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. - Тошкент: Фан, 1978.

² Қаюмов А. Қадимият обидалари. - Тошкент, 1972.

³ Кароматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. - Тошкент: Фан, 1993. - 96 б.

⁴ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. -Тошкент: Фан, 1978. -152 б.

⁵ Фозилов Э.И. Носируддин Рабғузий ва унинг "Қиссаси Рабғузий" асари. Китобда: "Қиссаси Рабғузий". - Тошкент: Ёзувчи, 1990. - 240 б.

⁶ Остонақулов И. "Қисас ар-Рабғузий – адабий асар: Филология фанлари номзоди... дисс. // Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. - Тошкент, 1993. - 129 б.

⁷ Сафарова Х.А. Рабғузийнинг "Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайҳиссалом" асари манбалари ва ғоявий-бадий таҳлили: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф.: // А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университети. - Самарқанд, 2001. - 33 б.

⁸ Юнусов А. "Қиссаси Рабғузий"нинг қўлёзма нусхалари // Адабий мерос, 1989. - № 3 (99). - Б. 73-97.

H.Safarovaning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom” asari manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida asarning eng yaxshi qissalaridan biri “Yusuf” qissasining o‘zbek adabiyotidagi tadrijiy rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib berdi. “Yusuf va Zulayxo” siklidagi dostonlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi taraqqiyotida Rabg‘uziy qissasining alohida ahamiyat kasb etishini isbotladi.

O‘z o‘rnida shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, asar ustidagi tadqiqotlarning hududiy chegarasi tobora kengayib bormoqda. Xususan, Turkiya G‘oziy universiteti Fan va adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti bo‘limi tomonidan “Xorazm qipchoq turkchasi dars mashg‘ulotlari” seriyasida Xorazmda yaratilgan o‘nlab asarlar qatorida “Qisasi Rabg‘uziy”ning ham e’tirof etilgani diqqatga sazovor¹.

Ishning maqsad va vazifalari. “Qisasi Rabg‘uziy”ning mavjud ikki nashri o‘rtasidagi farq va tafovutlarni aniqlab, asarning nisbatan mukammal ilmiy-tekstologik matni yaratishdan iborat. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan:

- “Qisasi Rabg‘uziy”ning mavjud ikki nusxasini o‘zaro qiyoslash, farq va tafovutlarni aniqlash;
- “Qisasi Rabg‘uziy”ning “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan nashrida yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish;
- toshbosmada yo‘l qo‘yilgan xato va nuqsonlarni aniqlash, shu tariqa asliyatni tiklashga erishish;
- Toshbosmada mavjud, ammo nashrda yo‘q qissalar matnini aniqlash va joriy imloda tabdil qilish;

¹ Ma’lumot uchun qarang: www.isa.sari.com. **Kisasu’l-Enbiya**. “Peygamber kissalari” anlamındadır. Hz. Adem’dan itibaren tum peygamberlerin kissalarını ve hayat hikayelerini ihtiva eder. Ayrıca, sahabelerin ve dört halifenin menkıbelerini anlatır. 1310’da Rabguzi tarafından Harezmi Türkçesiyle yazılan ve mensur yapıdaki eser, Arapçadan Farsçaya yapılmış bir tercümenin Türkçeye uyarlamasıdır. Eserin pek çok nüshası vardır: **Leningrad, isvec, Paris, Baku** nüshaları bunlardan birkaçıdır; ama **Londra** nüshası, en çok islenen ve tanınan nüsha olması dolayısıyla diğerlerinden daha önemlidir. Danimarkalı Türkolog **Kaare Gronbech** 1948’de Londra nüshasının tıpkıbasımını nesretmiştir. Tatar asıllı Lehistanlı bir Türkolog ise “Rabguzi’nin Sentaksı” adlı bir doktora tezi hazırlamıştır. Eser hakkında en önemli çalışmada ise **Aysu Ata**’ya aittir. İki cilt tutan bu çalışmada metin, tıpkıbasım ve dizin yer almaktadır.

- “Qisasi Rabg‘uziy”ning mavzu va janr tarkibiga doir ilmiy xulosalarni to‘ldirish va mukammallashtirish;
- “Qisasi Rabg‘uziy”ni matniy tadqiq qilish prinsiplarini ishlab chiqish;
- “Qisasi Rabg‘uziy”ning yangi ilmiy-tekstologik matnini yaratish;
- “Qisasi Rabg‘uziy” asari uchun lug‘at, izoh, kishi va joy nomlari ko‘rsatkichlarini tuzish.

Ishning metodologik asosi va tekshirish metodlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari hamda matnshunoslik, manbashunoslik fanining keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Mavzuni yoritishda o‘zbek adabiyotshunosligi, matnshunosligi va manbashunosligi fani qo‘lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, qiyosiy-tasnifiy tahlil usullariga ham murojaat qilindi.

Ishning ilmiy yangiligi. Nosiruddin Rabg‘uziyning yurtimizda nashr etilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari shaxsiy kutubxonamizda saqlanayotgan toshbosma nusxa bilan ilk marta ilmiy asosda o‘rganildi va qiyosiy tadqiq etildi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish natijalaridan ta’lim tizimida “Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari” mavzusini yoritishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligi uchun ham manba vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyada bayon etilgan ayrim ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan “Adabiy manba: o‘rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari” nomli maqolalar to‘plami (Qarshi, 2013. – B. 86-90) va “QarDU xabarlar” (Qarshi, 2014. - № 1. – B. 95-98.) jurnalida chop etilgan 2 ta ilmiy maqolada o‘z aksini topgan.

Ishning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch maxsus bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 79 sahifani tashkil etadi.

I BOB. “QISASI RABG‘UZIY” ASARI MANBALARI TAVSIFI

1. “Qisasi Rabg‘uziy”ning o‘rganilish tarixi

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan nasrning yirik namunalaridan biri “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan o‘rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga Qur‘on va boshqa diniy kitoblardan, tarix asarlari va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo‘lib, ular turkiy epik traditsiya ta‘sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Darhaqiqat, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi hikoyatlarning manbalari yuzasidan olib boriladigan izlanishlar masala tarixini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi.

XIII-XIV asr o‘zbek adabiyoti Mo‘g‘ul istilosining, dahshatli hukmronlikning og‘ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. Shu jumladan nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy”, “Nahjul farodis” kabi asarlari shu davr mahsullari bo‘lgan nasriy yodgorliklardir.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, u garchi anbiyolar to‘g‘risidagi majmua bo‘lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o‘laroq, o‘zida dunyoviy mayllarning, xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi.

Manbalarda “Qisasi Rabg‘uziy”ning XIV asrning diqqatga sazovor adabiy yodgorligi sifatida talqin etilishi uning o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda o‘z o‘rni va ahamiyati borligini ko‘rsatadi. Asar tradision kirish bilan boshlanib, so‘ng kitobning yozilish sababi, avtorning o‘zi haqida xabar beruvchi qisqacha so‘zboshisi keladi.

Asar yetmish ikki qissadan iborat bo‘lib, ularning hajmi, kompozision tuzilishi turlichadir. Qissalarning ba‘zilari o‘zaro ichki fasllarga – qismlarga bo‘lingan. Goho shunday o‘rinlar uchraydiki, bir qissa ichida uning mazmunini to‘ldiruvchi tamoman yangi mazmundagi mustaqil rivoyat keltiriladi.

Rabg‘uziy qissalar sujeti davomida o‘zi murojaat etgan Hasan Basra Rahmatulloh, Jobir ibn Ansoriy kabi mualliflarni, shuningdek, tafsir, Qur‘on va

boshqa kitoblarni eslatib o'tadi. Shuni ham aytish kerakki, qo'lyozmaning ba'zi bir nusxalarida "Qisas ul-anbiyo"ning avval arab tilida ekani, keyin fors tiliga tarjima qilingani, so'ngra unga (Rabg'uziyga) turkiy tilda yozish topshirilgani aytiladi.

Darhaqiqat, muallif sanab o'tganlardan ko'rinib turibdiki, anbiyolar haqida anchagina manbalar mavjud bo'lgan. Rabg'uziy o'sha tayyor qissalar xoh arab tilida, xoh fors tilida bo'lsin, ular asosida o'zbek tilida "Qisasi Rabg'uziy" (yoki "Qissas ul-anbiyo"ni) yaratadi. Asardagi qissalar payg'ambarlar to'g'risidagi afsonalar bilan bog'liq bo'lgani, ularga asoslangani tufayli ularning diniy xarakterda bo'lishi tabiiydir. Lekin qissalar asosini payg'ambarlar to'g'risidagi rivoyatlar tashkil yetishiga qaramasdan, asarda dunyoviy yo'nalishdagi, pand-nasihat ruhidagi rivoyatlarning ham keng o'rin olishi o'z-o'zidan asar qimmatini va yozuvchi mahoratini belgilovchi omillardan biri vazifasini o'taydi.

Sujet tarkibiga diniy rivoyatlar qatori dunyoviy yo'nalishdagi pand-nasihat, didaktik targ'ibot ruhidagi qiziqarli rivoyatlar bayoniga keng o'rin ajratilgani asarning o'sha davr kitobxoniga ma'lum darajada ma'rifiy, didaktik ozuqa berar edi. Bu esa nasrda yozilgan ushbu asarning el o'rtasida tez va kengroq yoyilishiga, qiziqib o'qilishiga ham sabab bo'ldi.

Rabg'uziy har bir qissa boshlanishida payg'ambarlarning sifatlarini bayon etuvchi madhiyalar keltiradi. Bu madhiyalar, ba'zi qissalarning xulosa va xotimalari she'r bilan yozilgan. She'rlar ko'proq o'zbek tilida, ba'zilari esa arab tilidadir. Asarda keltirilgan she'riy parcha va g'azallar badiiy saviyasi bilan Rabg'uziyning talantli shoir ekanidan ham dalolad beradi. Ikkinchi tomondan, bu hol XIV asr o'zbek adabiyotida g'azal janrining paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Har bir qissadagi o'ziga xoslik ularning kompozision qurilishida ham ko'rinadi. Ulardagi bayonda xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan Sulaymon, Luqmon hakim, Nuh, Yusuf to'g'risidagi qissalar xarakterlidir. Masalan, Sulaymon to'g'risidagi (23) qissaning o'zi "Sulaymon bilan mo'rcha" (chumoli), "Sulaymon bilan boyqush", "Sulaymon va Samandun dev", "Sulaymon va hudhud", "Sulaymon va Bilqis", "Sulaymon va burga", "Sulaymondan hayvonlar tilini o'rgangan kishi", "Ho'kiz bilan eshak" kabi

nomlash mumkin bo'lgan hikoyatlarga bo'linadi. Bularning hammasi alohida-alohida kichik hajmdagi hikoyatlar bo'lib, ularning har biri sujet liniyasiga ega. Ularning hammasi qo'shilib Sulaymon to'g'risidagi qissani to'ldiradi, voqealarning rang-barangligini ta'minlaydi.

Sulaymonning podshohlik shon-shavkati, dabdabasining tasviri esa xuddi sarguzasht xarakteridagi ertaklarni eslatadi. Bu qissadagi syujet liniyasi Sulaymonning payg'ambar, podshoh sifatidagi obro'-e'tiborini yoritishga muvofiqlashgan bo'lib, qissa echimida esa uning oqil va odil shaxs sifatidagi fazilati namoyon bo'ladi. Bu bilan Rabg'uziy Sulaymonning payg'ambar va podshoh sifatidagi mavqeining balandligi-yu, muhimi, uning inson sifatidagi yaxshi fazilatlarini namuna sifatida tasvirlaydi, shunday kishilarning hayoti, faoliyati, portreti, xatti-harakati o'sha davr hukmronlariga o'rnak bo'lishi ko'zda tutiladi. Sulaymon Dovudning o'g'liga podshohlik otasidan meros qoladi. Xudo farmoni bilan hayvonotu parrandalar, insu jinslar, dev, parilar, shamol, bulut-hammasi Sulaymonga tobelik ko'rsatadilar. Oltindan to'qilgan beqiyos katta gilamda oltin taxt atrofida kumush kursilarda o'tirgan vaziru fuzalolari, jin-parilari, lashkarlari bilan Sulaymon istagan tomonga shamol yordamida uchib yuradi, qushlar uning boshiga soyabon bo'ladi.

Bu hikoyatlardagi voqealar bayonida Sulaymon payg'ambar to'g'risida emas, birinchi navbatda, Sulaymon podshoh to'g'risida gap borayotgandek seziladi. Sulaymonning payg'ambar sifatidagi karomati ko'rinmaydi, u faqat xudoga iltijo qilish orqali turli shon-shavkatga erishib, dev-parilarni tobe qiladi. Vaholanki, payg'ambarlarga xos dinga da'vat etish bu qissalarda ko'zga tashlanmaydi.

Quyidagi bir misolda esa insoniylikning boshqa bir tomoniga ahamiyat beriladi. Dovud (payg'ambar) bir xotinni sevib qoladi. Uning erini yo'q qilish maqsadida urushga jo'natadi, kutganidek bo'ladi. Eri o'lgach xotinga uylanadi. Shundan so'ng kunlarning birida uning oldiga ikki aka-uka kelib: - Biz aka-ukamiz. Akamning to'qson to'qqizta sog'liq qo'yi bo'lsa ham, mening bitta qo'yim bor edi, uni tortib oldi! - deb shikoyat qiladilar.

Dovud: - Mening davrimda ham shunday zulm qilurmisan? - deb so'raganda, ayblanuvchi aytadi: - Sen o'zing to'qson to'qqizta xotining bo'la turib uning ustiga Uryoni o'ldirib, xotinini olding, bundan ziyod zulm bo'ladimi?. Dovud bilsa, ular farishtalar ekan, u o'zining osiy (gunohkor) bo'lganini bilib, kecha-kunduz sajda qilib yig'laydi.

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi personajlar portreti tasvirida xalq og‘zaki ijodining ta’sir kuchi seziladi. Avtor tasvirida personaj real hayotiy kuchdan, ko‘rinishdan ko‘ra, ko‘proq fantastik qiyofadagi o‘ta bahodir, o‘ta yaxshi yoki o‘ta yomon xislatlarga ega holda namoyon bo‘ladi: Masalan, Yusufning akalaridan Yahudo na’ra tortsa, Misr xalqi hushsiz yiqilar ekan. Yoki Muso (payg‘ambar)ning hassasi erga sanchilganda mevali daraxt, dushmanga qarshi katta ilon, daryoga ko‘prik bo‘lish kabi xosiyatlarga ega ekan. Yana bir misol. Amalqa qabilasi odamlari g‘oyat uzun bo‘ylik bo‘lib, Bani Isroil ularga o‘n ikkita baquvvat, novcha kishilardan elchi yuboradi. Ular ancha yurib bir kishining bog‘iga kirib uzum eb tursa, egasi ularni tutib oladi va oltitasini bir engiga, oltitasini boshqa bir engiga solib shoh huzuriga olib boradi va yengini qoqadi. U yerdagilar hayron bo‘lib, bu qanday qo‘llik, oyoqlik qurtlar? - deb, kaftlariga olib, tomosha qiladilar.

Rabg‘uziy asaridagi xarakterli qissalardan biri Nuh to‘g‘risidagi qissadir. Bu qissadagi eng qiziqarli o‘rin parranda, hayvonot dunyosidagi turli xususiyatlarni izohlovchi hikoyatdir. Masalan, arining g‘o‘ng‘illab uchishiga oid shunday naql keltirilgan: Nuh va uning kishilari suvda ketayotganlarida kemani sichqon teshib qo‘yadi. Ilon teshikni berkitib, ularni halokatdan saqlaydi va Nuhdan buning evaziga eng shirin narsa so‘raydi. Nuh arini eng shirin narsani aniqlashga yuboradi. Ari kelavermagach, qaldirg‘och undan xabar olgani uchib, yo‘lda ko‘rishib qoladi. Qaldirg‘och aridan: “Eng shirin narsa nima ekan?” - desa, ari: “Odam go‘шти!” - deb javob beradi. Ziyrak qaldirg‘och: “Qani, men ham totib ko‘raychi”, - deb uning tilini uzib oladi.

Shunday qilib, “Qisasi Rabg‘uziy” XIII asr oxiri va XIV asr boshidagi o‘zbek adabiyoti tarixida proza janri taraqqiyotini belgilashda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorlikdir. Asar, undagi diniy qarashlardan qat’iy nazar,

o‘zining u yoki bu darajadagi dunyoviy motivlari bilan XIII-XIV asr nasr namunasi va adabiy tili yodgorligi sifatida muhim qimmatga egadir.

2. “Qisasi Rabg‘uziy” manbalari tasnifi

Sharq adabiyotida “Yusuf va Zulayxo” sujetida o‘nlab asarlar yaratilgan. O‘zbek adabiyotida esa Yusuf Alining “Qissai Yusuf”, Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni va Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”sidagi “Qissai Yusuf siddiq alayhis-salom” qissasi ma’lum. Bu asarlar bir-biridan faqat she’riy yoki nasriy yo‘lda yozilgani bilangina farq qilmaydi. Ayniqsa, Rabg‘uziyning asar voqealariga yondashish uslubi va bayonda nasr bilan nazmning uyg‘unlikda saqlagani “Qissai Yusuf siddiq alayhis-salom” qissasini boshqa shu mavzudagi asarlardan alohida ajratib turadi.

Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida hajm jihatidan eng katta qissa “Qissai Yusuf siddiq alayhis-salom” sanaladi (nashrda 68 varaq). Unda “oilada sodir bo‘luvchi fisqu fasod, aka-ukalar orasidagi nizolar, shah-voniy intilish pok tuyg‘ularni toptab, razillik adolat ustidan g‘alaba qozonishi va bu g‘alabaning vaqtinchalik va o‘tkinchi ekanligi, sevimli farzandning arzimagan pulga qullikka sotilib ketishi, uning boshidan kechirgan azob-uqubatlar natijasida ham iymoni but qolgan Yusufni Alloh qadrlab, zindon zulmidan yorug‘likka olib chiqishi, qullikka sotilgan uka yuqori martabaga erishgach, xiyonat qilgan akalarini kechirishi va ularni o‘z panohiga olishi tasvirlanadi”¹.

Ma’lumki, Sharq adabiyotida mazkur mavzuda yozilgan asarlarning (xoh badiiy, xoh tarixiy bo‘lsin) barchasiga asos Qur’ondagi Yusuf payg‘ambar bilan bog‘liq sura hisoblanadi va manbalarda “ahsan ul-qisas” – “qissalarning eng yaxshisi” deb sifatlanadi. Rabg‘uziy mazkur qissa bayoni avvalida boshqa qissalarning bayoni avvalidan farqli ravishda, avvalo, “ahsan ul-qisas” tushunchasiga sharh beradi. Sharhda 9 ta sabab keltirilgan. Ya’ni, Yusuf haqidagi qissa, birinchidan, Qur’ondagi barcha qissalardan hajman kattaroq, foydasi ko‘proq bo‘lgani uchun; ikkinchidan, ba’zilarning taxminicha 40 yillik, ba’zilarning taxminicha 80 yillik tarix ifodalangani uchun; uchinchidan, boshqa qissalar turli

¹ Кароматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – 63 б.

oyatlar tarkibida kelgan bo'lsa, bu qissa tamom bir surada aks etgani uchun; to'rtinchidan, boshqa qissalardagi voqealar turli kishilar orasida, bu qissadagi voqealar asosan ota-ona, aka-ukalar orasida bayon qilingani uchun; beshinchidan, bu qissada rohatda, mashaqqatda, toat-ibodatda, kishilar orasida ezgu muomalada bo'lmoq uqtirilgani uchun; oltinchidan, Yusufning qarindoshlari bilan ezgu muomalada bo'lgani va ularning jafosiga sabr qilgani uchun; yettinchidan, bu qissaning boshlanishi ham, o'rtasi ham, oxiri ham tush bilan bog'liqligi uchun; sakkizinchidan, ishq bilan tamomlangani uchun; to'qqizinchidan, payg'ambarimizning "Kimki o'n turli balodan qutulay desa "Yusuf" surasini o'qisin" degan hadisi borligi uchun "Ahsan ul-qisas" deb atalgan.

Asar syujeti kompozitsiyasida o'zi asos qilib keltirgan ana shu 9 xususiyatga qat'iy amal qilgan muallif qissani faqat "Yusuf" surasining bayoni yoki mazkur payg'ambar bilan bog'liq ayrim masalalarning tafsiloti tarzida bayon qilmasdan, uni xalq dostonlariga xos qahramonning ta'rifu tavsifi va hozirgacha o'zbek (turkiy) she'riyatidagi ilk taxallus qo'llangan g'azal, shu-ningdek, fard va ruboiy janrlarining ibtidoiy namunalari bilan bezaydi.

Qissa boshlanmasidagi g'azalda Yusufning butun hayoti to'laligicha aks etgani va bu orqali asarning o'ziga xos kompozitsiyasi ifodalangani o'quvchi e'tiborini tortadi. 6 baytdan iborat ushbu g'azalda Ya'qub payg'ambarning 12 ta o'g'li bo'lgani, ularning o'n birinchisi Yusuf ekani, Yusufda ham ko'rk (chiroy), ham payg'ambarlik muvofiqligi, akalarining unga nisbatan hasadgo'y va dushmandorliklari, Yusuf taqdirida nihoyatda ahamiyatli bo'lgan tush voqeasi, qullik va oxir-oqibat, Yusuf-Zulayxo mojarolarining mantiqiy yakuni ifodalangan:

Chin o'n ikki erdi Ya'qub sovchining bolalari,

Ko'rsa aning birtak erdi bo'ylari bololari.

O'n birinchi Yusuf erdi suvrati yavloq badiz,

La'l ichinda gulchirar ko'p lu'lu'i lolalari.

Ko'rk qiliq ziynat malohat ham nubuvvat, ham karam,

Bosha azoqg'a tegru jumla mavloning ololari.

*Ota sevgan, otasing'a tush ko'rub yurdurg'uchi,
Ne hasad qildi, ko'r, anga ul o'gay og'olari.
Ul Misr mulki ichinda maliklar xotunlarin,
Qul qilg'an ul qamug'ni zulfining lololari.
Qul sotildi el ichinda qayra oldi qul qilib,
Voliy bo'ldi Misr ichinda bo'ldilar mavlolari.*

Rabg'uziy Yusufni nafaqat payg'ambar, shu bilan birga badiiy qahramon sifatida aks ettirishni maqsad qilgan. Buni amalga oshirish yo'lida badiiyatning turli o'lchovlaridan mohirona foydalana olgan. Jumladan, Rabg'uziy aynan shu qissa tarkibidagi to'rtliklari bilan ruboiy janrining o'zbek (turkiy) she'riyatida paydo bo'lish va shakllanish jarayoniga munosib hissa qo'shgan. Ma'lumki, ruboiyning janr talablaridan biri uning falsafiy, mushohadaga boy misralardan tashkil topishidadir. Rabg'uziy to'rtliklarida ruboiy vazni (hazaj bahrining axrab va axram tarmoqlari) to'la saqlanmagan bo'lsa-da, falsafiy mushohada teran ifoda etilgan. Jumladan, quyida keltirilgan misralarda "Barcha ignalar to'n tikadi, uni odamlarga kiydiradi, lekin e'tibor bersang, o'zi bari bir yalang'och qoladi; chiroqqa qarasang, u kuyadi, o'rtanadi (yonadi), shu yonishi, kuyishi bilan boshqalarga yorug'lik ulashadi" degan fikr ifodalangan:

*Qamug' yignalar to'n tikar kizdirur,
Yana o'zi ko'rsang yalang'och qolur.
Chirog'ma ulasho' kuyar o'rtanur,
Azinlarga ko'rsang yorug'luq berur.*

Tovushlar uyg'unligi (alliteratsiya) va so'zlarni turli o'rinda takrorlash orqali yaratilgan quyidagi baytlar Zulayxoning Yusuf ishqida telbanamo holga kirgani, bunga bardosh qila olmasdan enagasining yordamida turli hiyla va makr yordamida murodiga yetmoqni orzu qilgani tasviridan so'ng berilgan. Rabg'uziy

yozadi: “Aymishlar, yot qurtqani (kampirni) evga (uyga) kirguzmak kerak-mas. Agar qayu evga kirsas, buzmay chiqmas”.

*Erning balosi iki olam balosi – qurtqa,
Qurtqa qarib o‘lursa solg‘il etini qurtqa.
Yot qurtqani evingda ko‘rsang boshini kesgil,
Kuydur boshini o‘tqa, sovur kulini qortqa.
Qurtqa necha qarisan, toat qilib arisan,
Ev buzg‘ali topunsa, boqmas o‘ngiga, ortqa.
Qurtqa buzar ming ishni qayra tuzar tilasa,
Aning tegar balosi barcha mo‘g‘ulg‘a, sortqa.*

Xulosa shuki, Rabg‘uziy nafaqat mohir qissaxon yozuvchi, ayni paytda o‘zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo‘lgan dastlabki nasriy asar muallifi va ayrim she‘riy janrlarning ilk boshlovchisi hamdir.

I bob.Bo‘yicha xulosa.

1.Nosiruddin Rabg‘uziy qalamiga mansub “Qisasi Rabg‘uziy”ning “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan chop etilgan 2 kitobdan iborat nashri bir qator nuqson va kamchiliklarga ega bo‘lib, bugungi kunda uni mavjud boshqa nusxalar yordamida qiyoslash ehtiyoji mavjud. Demak, o‘zbek kitobxonining bu asar hajmi va tarkibi tog‘risidagi ma‘lumoti mukammal emas.

2.“Qisasi Rabg‘uziy”ning nasriy asar ekani xususiyatidan kelib chiqib Rabg‘uziy ijodi shu vaqtga qadar faqat nasriy mezonlar asosida o‘rganilgan. Uning she‘riy iqtidori va poetik mahorati tadqiqotlarda doimo ikkinchi planda o‘rganib kelingan. Rabg‘uziy ijodini shoirlik va she‘riyat mezonlari asosida atroflicha o‘rganish vaqti allaqachon yetib kelgan.

3.XIX asr ikkinchi choragi va XX asr boshlarida “Qisasi Rabg‘uziy”ning toshbosma usulda bir necha marta nashr qilingani manbalarda qayta-qayta qayd etilgan. Ularni izlab topish, qiyoslash va asarning mukammal ilmiy-tekstologik variantini yaratish lozim.

4.“Qisasi Rabg‘uziy” asarini yangidan nashr qilish zarur. Zero, bu ham davr, ham o‘zbek adabiyotshunoslik ilm-fanining asarga bo‘lgan ehtiyoji va zaruratidir.

II BOB. “QISASI RABG‘UZIY”NING MAVZU VA JANRIY-TARKIBIY TUZILISHI

1. “Qisasi Rabg‘uziy”ning mavzu ko‘lami

“Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek adabiyotining mumtoz namunasidir. Rabg‘uziy asari mavzu jihatdan serqirra asar hisoblanadi. Asarda bugungi kunda ham dolzarbligini yuqotmagan ruhan, jismonan sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning muayyan kasb-hunarini egallab, farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish, insonparvarlik, vatanparvarlik, to‘g‘rilik, adolat, shaxs va jamiyat munosabatlari, g‘ayriinsoniy va g‘ayriaxlokiy fe‘l-atvorlarga qarshi kurash kabi mavzular mustahkam joy olgan. Asarning dastlabki mavzui dunyoning yaratilishi haqidadir.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining muqaddimasi Alloh taolaga hamd va payg‘ambarimiz Muhammad payg‘ambarga salovat aytish bilan boshlanadi. U quyidagicha boshlanadi: “Sonsiz hamdu sanolar, salqishsiz telim o‘gdular, ul izi azza va jalla karim qudrati birla bizlarni odamiy yaratti, yilqi qora yaratmadi. Va laqad karramna bani A’dama. ... durud va tahiyyot ...”¹. So‘ngra “Val-qavlu fissamavati val-arzi” deb dunyoning yaratilish mavzusi yoritiladi. Dunyoning yaratilish mavzusi doimo dolzarb mavzulardan bo‘lib kelgan. Qadimda insonlar dunyo va undagi narsalarning qanday yaratilganligi haqida fikr yuritganlar. Ayrim kishilar dunyo o‘z-o‘zidan yaralgan deyishsa, ayrim kishilar dunyo yaratuvchi tomonidan yaralgan deydi. Dunyoning yaratilishi to‘g‘risidagi fikrlar doimo insonlarning dunyo qarashini belgilaydi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining muallifi ham asar boshida o‘z dunyo qarashidan kelib chiqib, dunyoning yaralish mavzusi haqida fikr yuritadi.

U dunyo Alloh taolo tomonidan yaratilganligini bayon qiladi. Alloh taolo dastlab bir gavhar yaratganligi va undan suv bo‘lganligini undan osmon va yerlarni yaratganligi aytiladi. Asarda: “Xabarda anog‘ kelur. Izi azza va jalla qamug‘da ashnu bir gavhar yaratti. Ul gavhar yaratti, ul gavharga haybat nazar qildi ersa ul

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 96.

gavhar erudi. Suv bo'ldi ersa anda kezin yelni yaratti" deyiladi. Alloh taolo osmon, yer va ulardagi narsalar olti kunda yaratdi. Bu haqda "Qisasi Rabg'uziy" asarida: "Yakshanba kuni ko'k (osmon)larni yaratti, dushanba kuni oyni, kunni, yulduzlarni yaratdi. Falak ichinda turitti, seshanba kun olam xalqinda qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, yellarni, bulutlarni chiqardi. Yig'ochlarni, o't-yemlarni yaratti, undurdi. Ro'zilarni ulashtirdi. Panjshanba kun ujmo (jannat), tamug' (do'zax)ni, rahmat va azob farishtalarni yaratti. Azina (jum'a) kuni Odamni yaratti. Shanba kun narsa yaratmadi"¹. Asarda Alloh taolo bu narsalarni ko'z ochib yumguncha qilishga qodir bo'lsada, ammo u dunyodagi narsalarni shoshilmasdan olti kunda yaratganligi ta'kidlanadi. Va insonlarga ta'lim berib, biror ish qilishda aslo shoshilmaslik lozimligi uqtiriladi. Bu haqda asarda: "Bu qamug' narsalarni taqi ming muncha narsalarni ko'z yumub ochg'uncha yaratg'u yarog'i bor edi. Olti kunda aning uchun yaratti, qullariga ta'lim qildi, manqodirlig'im birla, ev, esh qilmazman. Sizlar ojizligingiz birla evmadin, oshuqmadin aqruluq birla esh qilib teb. Qola Rasululloh: al-ajalatu minash-shayton va attani min ar-Rahmon (Shoshilishlik Shaytondan, sabr Rahmondandir)"² deyiladi. Dunyoni yaratilishi qissasida barcha narsa odam va uning manfaati uchun yaratilganligi uqtirilib, so'ngra odamning yaratilish mavzusi bayon qilinadi. "Qisasi Rabg'uziy" asarining Odam payg'ambar bobida insonni boshqa maxluqotlardan mukarram qilib yuborganlik mavzusi bayon qilinadi.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari dunyo va insonning yaratilishi mavzularidan keyin hozirgi kunda ham muhim bo'lgan muammolarni o'z ichiga olgan quyidagi mavzularni bayon qiladi.

Dunyoning avvalidan insoniyat oldida nohaq qon to'kilishini oldini olish mavzusi hamisha dolzarb masalalardan bo'lib keladi. Qirg'in-barot urushlarda, insonlarning o'zaro janjallarida insonning qoni to'kilishi kechirib bo'lmaydigan ishlardandir. Shu jihatdan dunyoviy qonunlarda ham, barcha dinlarda ham nohaq

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 12 б.

² Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 12 б.

qon to‘kish qoralanadi. Ayniqsa, hozirgi kundagi terrorizm va ekstremizm kabi illatlar nohaq qon to‘kish, alohida siyosiy arboblarni o‘ldirish yoki ularga qasd qilish, jamiyatda notinchlik yuzaga keltirish uchun qilinadi. Mazkur asardagi Qobil va Hobil qissasida nohaq qon to‘kish og‘ir jinoyat ekanligi mavzusi yoritiladi. Dastlab qissada Odam ato egizak farzandlar ko‘rganliklari va bu farzand otaning hukmiga ko‘nmaganligi quyidagicha bayon qilinadi: “Qachon Qobil tug‘di ersa aning birla bir qiz tug‘di, g‘oyat ko‘rkluk, Iqlimo otlig‘. Ikki yilda kezin Hobil tug‘di. Aning birla tug‘gan qiz g‘oyat ko‘rksuz erdi, Abudo otlig‘. Odam o‘z shari‘aticha Qobil birla tug‘gan qizni Hobilga berur bo‘ldi. Hobil birla tug‘gan qizni Qobilga berur bo‘ldi ersa Qobil unamadi. “Maning bila tug‘gan qizni olurman”, tedi. Odam aydi: “Shari‘at andog‘ ermaz”. Qobil aydi: “Bu manga qarindosh bo‘lur ersa ul ham qarindosh bulur”, teb taloshdi”¹.

Shundan so‘ng Odam payg‘ambar masalani qurbonlik qilish bilan yechish kerakligini aytadilar: “Odam aydi: “Andog‘ ersa ikagu qurbon qiling, qayunguzning qurboni qabul bo‘lsa Iqlimoni ul olsun”, tedi. Hobil qo‘y kuzarur erdi, ulug‘ semiz quy kelturub azoqlarini bog‘ladi, qurbon qilur yerda quzdi. Ko‘kdin o‘t indi, Hobilning qurbonini kuyurdi, Qobilning tegrasinga yovumadi”. Shundan so‘ng Qobil shaytonning gapiga kiradi: “Iblis kelib Qobilga aydi: “Hobilning qurboni aning uchun qabul qilindiki, mavlo azza va jalla hazratinda aning izzati va qurbi bor. Otang Odam yema ani sevar taki Odamnung tilagi ul turur, bu yer xalifaligi Hobilga bersa” teb, Qobilning ufkasi keldi, aydi: “Men Hobilni o‘lturayin. Qiz yema, xalifalik yema manga qolsun” teb, Qobil Hobilni o‘lturmakka ugradi.

Netak o‘lturguni bilmas erdi. Bir kun yobonda Iblisni ko‘rdi. Odam surati uza bir qush tutub borur. Bir tosh quzdi. Qushni tosh tabasinga quzdi, taqi yana bir tosh birla yanchdi. Qobil ani ko‘rub o‘lturmak o‘grandi”. Qobil Hobil o‘ldirmoqchi bo‘lib: “Man seni o‘lturarman”, dedi. Hobil esa: “Man sanga qatilmazman izi azza va jalladin qo‘rqarmen”, deydi. Shunday bo‘lsada, Qobil Hobilni o‘ldirdi: Hobil

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 29 б.

qum tabasinda yotib uziyur erdi, bir tosh birla urub o'lturdi. Qiyomatga tegi kishi o'lturmak, qon tukmak Qobil ta'limidin qoldi"¹.

Nohaq qon to'kish jinoyati kalta fahmlik natijasidir. Inson o'z mas'uliyatini to'liq his qilmasligi, omonat berilgan narsalarga xiyonat qilishligi tufayli jinoyatga qo'l uradi. Asarda: "Xabarda andog' kelur, Qobil Hobilni o'lturmishda yigirmi yashar erdi, qush qurtlar Hobilni ugradi. Qobil Hobilni bir qopga suqub orqasiga ko'turub yurur erdilar. Anchada tengri farmoni birla ikki qarg'a keldi, bir biri birla urushdilar, bir birini ulturdi. Tirik qolgan karga tumshuqi birla yerni qazdi, ul uluk qargani kumdi. Qobil ani ko'rdi, aytur: "Maning qarga choklig' aqlim yo'q ermish", teb ukundi. Odam ato safarga ketishdan oldin Hobilni akasi Qobilga topshiradi va: "Qachon Odam xajga borur bo'ldi erga Hobilni ko'kka tobshurdi, man kelgincha saqlag'il teb, qabul qilmadi. Yerga arza qildi, qabul qilmadi, tog'lar qabul qilmadi. Qobil qabul qildi, amonatga xiyonat qildi, o'lturdi", deyiladi. Qobilning o'z ukasini o'ldirishi, otasi berib ketgan omonatga xiyonat qilishi dahshatli jinoyat edi. Bu jinoyatdan kecha-kunduz tebranadi. Bu haqda asarda: "Qobil Hobilni ulturdi ersa tun, kun yer tebrandi. Odatda jinoyatchilar o'zlarining aybini bilib qochishga harakat qiladilar. Va jinoyatdan so'ng jinoyatni davom ettiradilar. Eng avval nohaq qon to'kkan Qobilda ham shu holat ro'y berdi. Qissada: "Qobil Hobilni o'lturdi ersa, Iblis kelib Qobilga so'zladi: Mavlo taolo ne uchun saning qurboningni qabul qilmadi? Aning uchunkim, san o'tga tobunmazsen. Butga tobunmazsen, xamr ichmazsen, un o'tkurmazsen.

Qobil bu kamug'ni ishlab erdi. Anda kezin Qobil xamr ichdi, butga tobundi, o'tga tobundi, unlar o'tkuru boshladi. Odam bildi ersa Qobilni ul ishlardin yig'moq uchun qirq ming er izdi. Kelib Qobilni ko'fdilar, ul unlar eshittilar qamug'i murtad bo'ldi. Qobil birla andaguq kirdilar. Bu kun qamug' ma'siyatlar qiyomatga tegi Qobildin qoldi"², deyiladi.

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 30 б.

² Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 31 б.

Albatta, nohaq to'kilgan qonning javobi bo'ladi. Kimki birovga nohaq o'q otsa, o'zi ham oxir bir kun shunday o'qlardan halok bo'ladi. Nohaq qon to'kkan Qobilni halok bo'lishi asarda shunday hikoya qilinadi: "Odam mavlodin tiladikim, yer mening erkimda bo'lsa, yorlig' bo'ldi yerga, Odam netak tesa andog' qilgil, teb. Odam aydi: "Ey yer, tutgil. Qobilni ashuqinga tegi tutdi. Qobil qo'rqdi, aydi: "Ey ota, rahm qilg'il". Aydi: "Sen qarindoshingga rahm qilmading, man senga netak rahm qilayin", tedi. Yana aydi: Ya arzu xuzuhu. Yer Qobilni tizinga tegi tutdi. Yolvordi, aydi: "Ey ota, sen ujmoxda yozding ersa yolvording, izi sendin kechurdi. Tilagil mendinma kechursun". Odam aydi: "Man uvun bug'doy yedim, sen qon qilding, netak kechurur?" Yana aydi: Ya arzu xuzihi. Yer Qobilni belinga tegi yutdi. Aydi: "Ey, ota, sen aytur erding mavloning yuz ming ulug' rahmati bor, to'qson to'quzni qamug' olamdaki mu'minlarga bergusi, bir ulush qamug' tanlig'larga bergusi. Tilagil manga ul bir ulushdin bersun". Odam aydi: "Sen karindashingga rahm qilmading, ul rahmatdin sanga ulush yo'q tedi. Yana aydi: Ya arzu xuzihi. Yer Qobilni bug'zinga tegi yutdi. Qobil Odamdin umid kesdi. Qobil aydi: "Ilohiy, otamdin eshitdim sening Rahmon, Rahim ikki oting bor. Ul rahmonliking birla meni bu azobdin qut-qargil. Qutarmaz ersang Rahmon otingni uzungdin ketargil", tedi. Ovoz eshitildi: "Ey Qobil, man telimlarni azobdin qutqarg'ayman. Rahmon otimni ketarmagayman". Yerga xitob keldi, Qobilni kuzgil. Mavlo yorligi birla kuzdi. Bir farishta keldi, tengri farmoni birla Qobilning azoqin tutub yetti yo'li mashriqdin mag'ribga tegi uvurdi, chaldi, halok bo'ldi"¹. Qissa oxirida nohaq qon to'kkan Qobil qilgan jinoyatiga yarasha jazolanadi. Asarda nohaq qon to'kish og'ir jinoyat ekanligi, undan saqlanish lozimligi uqtiriladi.

Rabg'uziy Yunus payg'ambar qissasini bayon qilish bilan asarni o'quvchida inson o'zini qutqarib, insonlarni kulfatda qoldirib boshqa joylarga ketish halokat ekanligi uqtiradi. Aslida, inson faqat o'zi uchun emas, balki boshqa atrofidagi kishilar bilan birga yashashi lozim. Mana shu ma'noda Yunus payg'ambar Musil

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 32 б.

degan shaharga paygʻambar etib yuboriladilar. Bu haqda qissada: “Yunus xotiniga keldi, oti Sofon binti Sofun, aydi: “Ey Sofon, mani Mavlo taolo qamugʻdin yovuz xaloyiqqa yubordi”, dedi. Sofon aydi: “Qayu xaloyiqgʻa?”, dedi. Aydi: “Musil xalqingʻa”¹, dedi. Yunus paygʻambar Musil shahriga kelib, odamlarni toʻgʻri yoʻlga targʻib qildilar. Ammo xalq u kishiga quloq solmadi. Shunda Yunus paygʻambar Musil shahri xalqini balo kelishi bilan ogohlantirdilar. Balo kelganda dastlab yuzlari sargʻayishi, undan keyin qizarishi, keyin yuzlari qorayishini aytdilar. Asarda: “Yunus xaloyiqni iymonga undayu boshladi. Qirq kunga tegi. Qirq birinchi kun malikka keldi. Aydi: “Ey malik, Mavlo yorliqi manga qirq kun erdi. Undadim, biragu imonga kelmadi. Emdi izi azza va jalla balosigʻa anuq turgʻil”. Malik aydi: “Baloning belgisi ne turur?” Aydi: “Tong birla qoʻpsangiz yuzlaringiz qizargʻay, ikkinchi kun sargʻargʻay, uchunchi kun qoraygʻay”² deyiladi. Musil shahriga aytilgan balo keldi. Musil xalqi baloni koʻrib, tavba qilishdi. Va yomonlikdan qaytib, ammo ularning bu ahvolidan bexabar Yunus paygʻambar shahardan chiqib kemaga mindilar. Bu haqda asarda: “Anda Iblis bir qari kishi suratigʻa Yunus qatigʻa keldi. Yunus aydi: “Qaydin kelursan?” Iblis aydi: “Yolgʻonchi Yunus sen boʻlurmusen? Balo kelmadi. Malik dor tikib dorga sani osayin teyur. Oʻzgalar ham mundogʻ soʻzlamasunlar teb seni tiayur”, deyiladi. Yunus paygʻambar Iblisdan bu soʻzlarni eshitganlaridan soʻng Musil xalqini musibatda qoldirib oʻzlari va xotin-bolalarini olib qochdilar. Asarda: “Yunus Iblis soʻzidan oʻfkalab, xotuni birla oʻgʻlonlarini olib yozigʻa chiqdi” deyiladi. Yunus paygʻambar daryo yoqasiga borib boshqa shaharga boradigan kemaga chiqdilar. Yoʻlda kema qatiq chayqaldi. Kema boshligʻi kemada gunohkor borligini aytadi. Kemadagilar gunohkor kimligi bilish uchun qurʻa tashladilar. Uch marta qurʻa tashlanganda ham Yunus paygʻambar nomlari chiqdi. Va Yunus paygʻambarni kemadan suvga tashladilar. Asarda bu haqda: “Qamugʻning toshi suvgʻa botti, Yunus toshi botmadi. Yunus aydi: “Koʻr-dunguzmi, yozuqlugʻ manman”. Aytdilar:

¹ Рабғузӣ, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузӣ. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 57 б.

² Рабғузӣ, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузӣ. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 59 б.

“Qur’a xato qilur yana soling”, Aymishlar, uch yo’li soldilar Yunus otig’a chiqti. Yunus qo’pti, to’nin kafan qildi. Kemi qirog’iga keldi o’zini solg’ali” deyiladi. Yunus payg’ambar qilgan xatolarini tushindilar. Chunki u zot har xil gaplardan vahimaga tushib, insonlarni beruxsat tark qilgan edilar. Insonlarni besabab tark qilish jinoyat, ular bilan birga yashash esa fazilat. Yunus payg’ambar insonlarni besabab tark qilganliklariga pushaymon bo’ldilar. Bu pushaymonliklari va tavbalari tufayli muqarar halokatdan najot topdilar. Bu asarda shunday bayon qilinadi: “Zolujo otlig’ baliqg’a ilhom bo’ldi, ul Yunus otlig’ yalavochlarimizni tutg’il. Zolujo Yunusni tutayin tedi ersa Yunus qo’rqub bir yong’a o’vrulur erdi. Baliq aydi: “Ey Yunus, qachong’acha tegi qocharsan? Yunus bildikim, Tengri taolo qazosi turur. Ilki birla ko’zin tutti. ...Yorliq bo’ldi Zolujog’a, saning qorningni Yunusg’a zindon qildim. Ani yemakni sanga harom qildim, ani emgatmagil. ...Qirq kun baliq qornida qoldi. Andin so’ng Jabroilg’a yorlig’ bo’ldi, Zalujoga ayg’il Yunusni chiqarsun” deyiladi.¹

“Qisasi Rabg’uziy” asaridagi Dovud payg’ambar qissasida har bir kishi kasb-hunar bilan tirikchilik qilishi lozimligi mavzusi bayon qilinadi. Asarda aytilishicha, Dovud payg’ambar kechalari qo’l ostilaridagi shaharni aylanib, o’zlarini tanitmasdan odamlar bilan suhbatlashar ekanlar. Bir kechasi shahar aylanib yurib, bir kampirga duch keldilar. Undan podshoh “Dovud qanday?” deb so’radilar. Kampir esa: “Dovud yaxshi podshohda ammo uning kasbi yo’q. Kasbi bo’lmaganligi uchun uning tirikchiligi xalqning bo’ynidadir. Aslida, kim bo’lishidan qat’iy nazar tirikchiligini hamma o’zi qilish kerak. Birovning bo’yniga yukini ortishlik boshqa odamlarga zulm qilishlikdir”-deydi. Kampirning bu gapi Dovud payg’ambarga qattiq ta’sir qildi. Uylariga qaytib kelib, tong otguncha yig’ladilar va Alloh taolodan tirikchilik qilish uchun bir kasb berishni so’raydilar. Shu sababli Alloh taolo Dovud payg’ambarga temirchilik kasbini beradi. Hazrati Dovudning qo’llarida temir mumdek eriydi. Bu haqda asarda: “Aymishlar, Dovud yalavoch tunla o’zin belgusiz qilib ra’iyatlardan so’rar erdikim, podshoh sizning

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – Б. 60-63.

birla netak muomila qilur? Aytur erdilar: Yavloq odil turur. Bir kecha andog‘ so‘zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi, bir qurtqa surati uza. Andin so‘radi: “Podshohingiz netak turur?” teb. Qurtqa aydi: “yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur”. Dovud duo qildi: “Iziyo, manga bir harf o‘gratgil. Aning birla qazg‘achimni yeyayin. Xalq mani so‘zlamasunlar”. Mavlo taolo bir taqachilik sanoatin anga o‘gratu berdi. Aymishlar, temur Dovud ilkinda mumtek yumshar erdi”¹.

Darhaqiqat, “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Dovud payg‘ambar qissasida har bir inson kasb o‘rganib, shu kasbi bilan o‘z tirikchiligini o‘tkazishi lozimligi uqtiriladi. Inson o‘z qo‘li kuchi, kasbi, mehnati bilan ajoyib narsalarni yaratadi. U inson kasbi bilan xalqning hojatini chiqaradi va uning olqishiga sazavor bo‘ladi. Kasb-hunarli kishi har doim xalq uchun kerakli insondir.

Qadimdan insonlar doimo poklikda yashashga harakat qilib kelishadi. Shu sababli insonlar o‘zi yashagan joylarni toza, saranjom sarishta, liboslari ozoda, luqmalarini ham pok bo‘lishiga ahamiyat berib kelishgan. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham poklik mavzusi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Asar boshidagi “Horut va Morut” qissasida nopok jinoyat ekanligi, poklik esa fazilat ekanligi mavzusi bayon qilinadi. Bu qissada Qobul va uning o‘g‘illari bir-birlarini o‘ldirganliklari, shu tufayli farishta odamni yaratish qon to‘kilishiga sababchi bo‘lishini aytadilar. Bu haqda asarda: “Qobilning ko‘zsiz o‘g‘li bor edi. Ul o‘g‘ilning bir yosh o‘g‘li bor edi. Ul yema ko‘zsuz erdi. Otasi ilkin tutub kishi maning ammunni o‘lturgan turur” ko‘zsiz tosh ko‘tardi, Qobilni urdi. Qobil o‘ldi. O‘g‘lon yana aydi: “Otangni naluk O‘lturding? “tedi ersa bir tosh ko‘turdi. Tosh birla urub o‘g‘lonni o‘lturdi. Ul holda farishtalar aydilar: “Ilohiy, biz odamni yaratmazdan ashnu aymadimuz-mukim, Odam o‘g‘lonlari Jin ibn al-Jon(ni) mengizlik qon to‘kkaylar teb”.

Asarda farishtalarning bu so‘zlariga Alloh taolo quyidagicha javob berganligini quyidagicha bayon qilinadi: “Farmon keldi: “Ey farishtalar, sizlardan qayungiz olimroq, zohidroq ersa ani kelturing”. Farishtalardan ikki farishta odam

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – 3 б.

suratida yerga olib kelindi. Asarda keltirilishicha, Horut va Morut ismli farishtalar odamlar orasida biri qozi, ikkinchisi mufti sifatida ish olib borib, turli buzuqliklarni qiladilar. Ular zino bilan shug'ullanmoqchi bo'ladilar. Bu haqda asarda: "Bir kun bir xotun eri birla tortishu Uzzog'a keldilar. Uzzo ul xotunni ko'rdi ersa ko'rkli. Ul xotung'a mayl qildi, aydi: "Ey xotun, sen yo'lsuzsan, maning birla bo'g'il. Man saning ko'nglungcha hukm qilayin", tedi", deyiladi. Ma'lumki, shahvoniy nafsga erk berish, uni noto'g'ri yo'l bilan qondirishga zino deyiladi. Zino tufayli shahvoniy hislar talvasa qiladi, ayol-erkakka fitna yo'llari keng ochiladi. Shahvoniy nafsga erk berish va jamiyatda fitnani tarqalishi har xil ofatlarni keltirib chiqaradi.

Xaqimizda qadimda zino buzuqilik sifatida qoralanmanganda edi, sevgi va do'stlik, mehr va shafqat kabi ijtimoiy va insoniy tuyg'ular asosiga qurilgan oila hayoti barham topgan bo'lar edi. Zino oilalarning buzilishi jamiyatning yemirilishidir. Jamiyatning yemirilishi esa insoniyatning halokat tomon yuz tutishidir. Zino inson iffat-nafsini poymol qiladi. Shaxs, oila, jamiyat buziladi. Insoniyat tarixiga nazar solinsa, bu nopoklik insoniyatga va u yashayotgan jamiyatga yaxshiliklar olib kelmagani ma'lum bo'ladi. Horut va Morut ham o'z nafslari yo'lida iffatli ayollarni yo'ldan urishgacha boradilar. Lekin oqila, o'z e'tiqodiga mustahkam, eriga sadoqati zo'r bo'lgan ayol ularni dog'da qoldirib, Xudoning olqishiga sazovor bo'lib, tong yulduziga aylanadi. Nopok ish bilan shug'ulangan Horut va Morut jazolanadilar. Ular Bobilda oyoqlaridan osib qo'yildilar. Bu haqda asarda shunday deyiladi: "Jabroil ularni Bobil quzug'inga eltdi. Qil birla tabondan osdi"¹.

"Qisasi Rabg'uziy" asaridagi Sulaymon payg'ambar qissasida inson dunyoni boshqarishga qodirligi masalasi bayon qilinadi. Asardagi qissada Sulaymon payg'ambar Dovud payg'ambarning farzandlari ekanligi va u kishiga podshohlik meros qolganligi aytiladi. Bu haqda asarda: "Sulaymon Dovud podshohliqni meros oldi. Xabarda andog' kelur. Dovud yalavoch duo qildi: "Iziyo, mening haqimda

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 38 б.

ko‘p lutfu karam qilding, o‘g‘lum Sulaymon ham andag‘-o‘q qilg‘il”. Xitob keldi: “Ey Dovud, Sulaymonga aytg‘il, mening hazratimda andog‘ tirilsunkim, sen tirilding, men taqi, senga qilgan lutfu karamni anga qilayin. Mavlo taolo ukush narsalarni anga mulk qilib berdi. Avval mulk ul erdikim, Sulaymonning podshohliqi ichinda yaxshidin, yomondin xabar bergan qushlar er Aymishlar, yetmish tun uyug‘ tudi, duo qilib yodbordi: “Iziyo, meni yorlaqag‘il. Manga mulke berrgilkim, mandin o‘zga kimsaga bermish bo‘lmag‘aysen. Qamug‘ini bag‘ishlag‘an sensan. Yorlig‘ keldi: Qamug‘ maliklarining jonin olg‘anman, dunyo ichinda sendan o‘zga malik bo‘lmag‘ay. Mavlo taolo ul va‘daga vafo qildi. Qamug‘ maliklarini ko‘tardi. Sulaymon yolg‘uz qamug‘ olamg‘a malik bo‘ldi”□. Sulaymon payg‘ambar butun dunyodagi ins-jinslarga podshoh bo‘ldilar. Va u zot butun dunyoni boshqarib, yerda obodonchilik ishlarini olib bordilar. Bu obodonchilik ishlarida nafaqat insonlar balki jin, devlar ishtirok etishdi. Bu haqda asarda: “Sulaymon yolg‘uz qamug‘ olamg‘a malik bo‘ldi. Yetmish tun yana uyug‘ turdi. Aydi: “Ilohiy, taqi orturg‘il. Yorlig‘ keldi: parilarni sening farmoningda qildim. Tonglasi parilarning ulug‘larin yig‘durdi. Viloyatlarni ularg‘a topshurdi. Tekmasini bir ishga nasb qildi. Tonglasi parilarning ulug‘larin yig‘durdi, mavlo taolo devlarni sulaymon tasarrufig‘a kiyurdi. Viloyatlarni ularg‘a qismat qildi. Yana yetmish tun uyug‘ turdi. Aydi: “ilohiy, ortuqroq kerak”. Mavlo taolo ani uchar qushlarg‘a, yugurur kiyiklarga erklik qildi. Yana yetmish tun uyug‘ turdi. Mavlo taolo yelni, taqi suvni musaxxar qildi. Yer-ko‘k orasinda ne kim yaratmish bor ersa. Qamug‘ini musaxxar qildi. Qamug‘i bo‘yunsundi. Aymishlar, qachon Sulaymon tog‘din kechar bo‘lsa, ul tog‘dag‘i oltun. Kumush nekim bor ersa barchasi tilga kelur erdi: “Men mundamen, kerak bo‘lsa, olg‘il”, teb. Tengiz ham andog‘ der erdi. Kerak bo‘lg‘an devlarga tog‘da savmaa qazdurur erdi. Kerak bo‘lg‘an devlarga tog‘da savmaa qazdurur erdi. Parilarga, odamiylarg‘a imorat qildirur erdi”¹.

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – 33 б.

“Dovud alayhis-salom qissasi”da inson yer yuzining egasi qilib yaratilganliklari, u butun dunyoni boshqarishga qodir ekanligi va yer yuzidagi barcha mavjudotlar, maxluqotlar odamzodning tasarrufida bo‘lib, uning uchun xizmat qilishi uqtiriladi. Asarda inson yer yuzining qayerida bo‘lmasin millati, jinsi, rangi, tili, dinidan qat’iy nazar teng va har bir ishga qodirligi bayon qilinadi.

Qadimda Misr mamlakatini fir‘avnlar boshqargan. Bani Isroil qavmini ko‘p yillar Fir‘avn qo‘l ostida zulm va istibdodda yashadi. Fir‘avn Bani Isroil xalqini qattiq azoblarga soladi, ularni haq-huquqlarini poymol qildi, Bani Isroildan tug‘ilgan yosh bolalarni o‘ldirdi. Bani Isroilga ularni bu zulm va istibdoddan qutqaradigan yo‘lboshchi kerak edi. O‘sha yo‘lboshchi Bani Isroil xalqini ozodlik sari ergashtirishi lozim edi. Anna shunday kishi Muso payg‘ambar edi.

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi Muso payg‘ambar haqidagi qissada Bani Isroil xalqini Misr Fir‘avnlari zulmi va istibdodidan qanday qutilganliklari mavzusi hikoya qilinadi. Bani Isroil xalqidan bo‘lgan kishilar Muso payg‘ambarga Fir‘avnni zulm va istibdodidan qutqazishni, xalqni ozodlik sari ergashtirishni so‘raydilar. Muso payg‘ambar Bani Isroil xalqini Fir‘avn zulmidan qutqazishga bel bog‘laydi. Fir‘avn Bani Isroil qavmini o‘z zulmidan ozod bo‘lishlari xohlamaydi. U xudolik da’vo qilgan holda Bani Isroilni o‘ziga ibodat qilishlariniga buyuradi. Muso payg‘ambar Fir‘avndan Bani Isroil xalqiga ozod berishni talab qiladi. Fir‘avn bunga ko‘nmadi. Muso payg‘ambar Fir‘avnni mamlakatga balolar kelishi bilan ogohlantirdi. Balo keldi. Ammo Fir‘avn har safar ozodlik berishni keyinga surib keldi. Asarda bu haqda shunday deyiladi:

“Muso Fir‘avnga keldi, aydi: “Iymon kelturgil, Bani Isroilni manga bergil, yo‘q ersa duo qilg‘am azob kelgay”. Fir‘avn Musog‘a qattig‘ so‘zladi, na qilsang qilg‘il tedi. Muso qirq tun-kun mavloga duo qildi, yalbordi. Jabroil kelib aydi: Ey Muso, ko‘nglungni xush tutg‘il. Azob yetildi. Izi azza va jalla Muso yalavochliqda to‘quz narsa bermish erdi. Avval tayoq, ikkinchi bayzo, ilik, uchunchi infijor,

to‘rtinchi infiloq, beshinchi to‘fon, oltinchi chigurtka, yettinchi kuya, sekizinchi baqa, to‘quzinchi qon”¹.

Muso payg‘ambar Firavn zulmidan ozor chekkan Bani Isroilni ergashtirib chiqdilar. Fir‘avn bundan xabar topib Bani Isroilning ortidan tushdi.

Muso payg‘ambar ergashtirib borayotgan Bani Isroil daryoga duch keldi. Ortida esa Fir‘avn askarlari yetib keldi. Bu holat asarda quyidagicha aks ettiriladi: “Fir‘avn otlandi. Yetmish ming yayog‘ Musoni quvladi. Kun tug‘ar vaqtda Musoning cherikin ko‘rdilar. Musoning cherikin ko‘rdilar. Muso qavmi qo‘rqtilar”.

Muso payg‘ambar xalqni zulmdan ozodlikka boshlovchi edi. Shu sababli u najot topdi. Daryodan yo‘l berdi. Bani Isroil daryodan sog‘-salomat o‘tdi. Ammo Fir‘avn va uning askarlari suvda g‘arq bo‘ldilar. Asarda: “Muso aso birla urg‘anda suvlar ayrilib daryo tubiga kun tushdi, azin tushmagay. ...Muso cheriki tugal suvdan chiqtilar, Muso bir adir yerda bani isroilni yig‘ib mavlo taolog‘a shukr qildilar, hamdu sano aydilar. ...Izi azza va jalla tahqiq dushmanigizni halok qildi. Daryoda qachon tamom qibtiylar daryog‘a kirdilar ersa suvg‘a yorliq bo‘ldi “oqa boshla” teb. Qachon Fir‘avn daryoga g‘arq bo‘ldi”².

Zulm va istibdodga qarshi kurashda Muso payg‘ambar Firavndan g‘olib chiqadilar. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Muso payg‘ambar qissalarida yomonlik ustidan yaxshilik, zulm va istibdod ustidan erkinlik, ozod g‘olib bo‘lishi bayon qilinadi.

Qorun qissasida ochko‘zlik insoning tuban axloqiy ko‘rinishi ekanligi va oxir oqibat halokatga borishi bayon qilinadi. Qorun boyligi haqida qissada: “Mavlo qudrati birla Qorun yetti tun-kun oltunchilik qildi. Ganjlardan xazinalar o‘rnatti. Tekma bir ganjga bir oltun kalid qildurdi. Kalidlar ko‘p bo‘ldi. Ko‘tarmoq og‘ir bo‘ldi. Qachirg‘a yukladilar, qachir ko‘tarmadi”, deyiladi. Shuncha boyligi bo‘lsa ham Qorunning ko‘zi och edi. U boyligidan faqir kishilarga nafaqa berishga baxil qilar edi. Muso payg‘ambar Qorunga molidan muhtoj kishilarga nafaqa beirishni

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 172 б.

² Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 175-176 б.

aytganda, u ko‘nmadi. Qorun Muso payg‘ambarga tuhmat uyushtirdi. Ochko‘z odam o‘z nafs foydasi yo‘lida birovlariga tuhmat qilishdan ham qaytmaydi. Bu haqda qissada: “Bir kun Qorun bir Shamit otlig‘ arig‘siz urag‘utga ming oltun berdi. Taqi aydi: “Borg‘il, Muso majlis tutar yerda xalq qoshida ayg‘il: “Ey Muso, sen o‘zgalarga o‘gut berursan. O‘zing maning birla tong otquncha nelar qilding, xamir ichting. Emdi kelib xalqg‘a ne o‘gutlar berursen”. “Shamit ming oltunni oldi, Musog‘a keldi. Ul ming oltunni kelturub Muso o‘nginda qo‘ydi.. taqi aydi:” Muni manga Qorun berdi. Borg‘il, Musog‘a bani Isroil qatinda mundog‘ tegil teb. Emdi keldim, tavba qildim”¹.

Ochko‘zlikning oxiri halokat bilan tugadi. Muso payg‘ambar duo qildilar. Qorunni butun boyligi va saroyi bilan yer yutdi. Bu haqda asarda: “mavlo taolo Muso duosinin ijobat qildi. Qorunning qamug‘ moli tovari birla, saroyi birla quyi izdi”, deyiladi.

Ochko‘zlik eng yomon odatdir. Inson ochko‘z bo‘lsa, u och bo‘ridek narsaga tashlanadi. Boy deb ko‘zi to‘q, ko‘ngli to‘q odamni aytiladi. Ochko‘z odam hech vaqt boy bo‘la olmaydi. Ochko‘z nafs insonni razil ishlarga undaydi. Inson baxil, himmatsiz kishi bo‘lib qoladi.

Inson uchun eng xavfli odat bu ochko‘zlikdir. Ochko‘zlik insonni halokatga yetaklaydi. Shu sababli “Qisasi Rabg‘uziy”ning “Qorun qissasi”da ochko‘zlikning halokatli oqibati bayon qilinadi.

Ya‘qub payg‘ambarning farzandi Yusuf payg‘ambar hasad tufayli ko‘p mashaqatlarga uchradilar. Ayniqsa, bu hasad Yusuf payg‘ambar yetti yoshga kirganlarida ko‘rgan tushlari sabab bo‘ldi. Asarda bu haqda: “Yusuf taqi Ibn Yamin Rohildin erdidilar. Yusuf kichik erkan Rohil vafot etdi. Yusuf, ibn Yamin kichik qoldila teb Yaqub bularni shafqat qilur erdi onasiz teb, ammo Yusufni qattig‘ sevar erdi. Yusufsiz yurmas edi. Yetti yoshadi ersa bir tunda tush ko‘rdi inichilari birla tayog‘larin yozida tikdilar, qamug‘lariko‘kardi, ammo uzamadi.

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – 13 б.

Yusuf tayoqi chechaklandi, ilk qat ko'kka tegi uzadi. Taqi azin tayoqlar uzaguliga qildi.

Ba'zilar aymishlar, inichilarning tayoqlari Yusuf tayoqiga sajda qildilar. Yusuf kelib ul tushni inichilariga ayту berdi ... Ikkinchi kecha yana tush ko'rdi o'n bir bir yulduz, kun oy birla inib yusufg'a sajdaqildilar. Yusuf bu so'zlarni otasi Ya'qubg'a ayту berdi"¹.

Oiladagi farzandlar orasidagi hasad oxir oqibatda otani boladan ayirishga olib keldi. Yaqub payg'ambarning sevikli farzandlari Yusuf payg'ambar akalari dastlab quduqqa tashlashdi, so'ngra bozorda qul qilib sotib yuborishdi. Yaqub payg'ambar Yusuf payg'ambaridan ajralishlari tufayli xafa bo'lib, ko'p ko'z yosh to'kadilar va ko'zlari ko'rmay qoladi. Yusuf payg'ambar hayot sinovlaridan o'tib, oxiri Misrda aziz (hokim) bo'ladilar. Ya'qub payg'ambarning boshqa farzandlari ocharchilik boshlangan yillarda g'alla olib kelish uchun Misrga borishadi. Misr aziz (hokim)i o'z odatiga ko'ra yurtga kelganlar bilan parda orqasida turib gaplashar edi. Ya'qub payg'ambarning farzandlari Misr aziz (hokim) iga payg'ambar bolalari ekanliklarini, otalari Ya'qub payg'ambar ko'r bo'lib qolganliklarini aytadilar. Shunda Yusuf payg'ambar o'zlarini tanitmasdan Ya'qub payg'ambar farzandlariga g'alla berayotib ustilaridagi kuylaklarini chiqarib ularga beradilar. Va bu kuylakni Ya'qub payg'ambarga topshirishni tayinlaydi. Ya'qub payg'ambar farzandlari o'z yurtlari Kan'onga qaytganlarida otalari Ya'qub payg'ambarga Misr aziz (hokim)ining kuylagini topshiradilar. Ya'qub payg'ambar kuylakni hidlab "kuylakdan Yusufning hidi kelayapti", deydi. Chunki har bir tirik mavjudot o'z bolasining hidini yaxshi ajratadi. Ya'qub payg'ambar ko'ylakdan Yusufni tirik ekanligini va yaqinda farzandlari visoliga yetishlarini his qila boshlaydilar. U kishidan Yusuf payg'ambar firoqi ko'tariladi. Misr aziz (hokim)i berib yuborgan kuylakni qayta-qayta hidlash natijasida Ya'qub payg'ambarning ko'zlari ochiladi. Asarda bu haqda: "Yahudog'a aydi: "Sen mening ko'nglakimni otamg'a olib borg'il, ko'nglakimni ko'ziga surtsa ko'zlari

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 102 б.

ochilg‘ay”, deyiladi. Asarda hamisha yuksak axloqni namoyon qilgan Yusuf payg‘ambar kuylagi otasi Ya‘qub payg‘ambarning ko‘zlarini ochadi, u kishiga salomatlik ato qilishi bayon qilinadi. Yaqub payg‘ambarning farzandi bo‘lgan, u zotning sog‘lom tarbiyasini olgan Yusuf payg‘ambar sog‘lom tarbiya mevasi edi.

“Yusuf payg‘ambar qissasi”da “Sog‘lom bola-sog‘lom tarbiya mevasi” ekanligi bayon qilinadi. Bu mavzu hamma zamonlar muhim ishlardan bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bu yilgi 2014 yilimizga “Sog‘lom bola yili” degan nom berilishi bu mavzuni yana muhimligini ko‘rsatdi. Chunki oilada barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir oiladagi tarbiyaning sog‘lomligiga bog‘liq. “Sog‘lom bola” yili munosabati bilan bu yilda davlatimiz tomonidan turli dasturlar qabul qilinadi. Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi xodimlar tomonidan sog‘lom bola tarbiyasi yo‘lida xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. “Sog‘lom bola” yili munosabati bilan bu yilda davlatimiz tomonidan turli dasturlar qabul qilindi. Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi xodimlar tomonidan sog‘lom bola tarbiyasi yo‘lida xayrli ishlar amalga oshirilyapti.

Ana shu jihatdan Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Yusuf payg‘ambar qissasi” muhim mavzu ko‘tarilgan asar hisoblanadi. Yoshligidan har tomonlama sog‘lom bo‘lib tarbiyalangan bola ota-onaga mehribon, Vatan va xalqiga sodiq inson bo‘lib yetishadi. Ana shunday har tomonlama sog‘lom bo‘lib yetishgan inson o‘zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab yetadi va u ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, ona yurtimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq topishida o‘zining munosib hissasini qo‘shadigan bo‘lib voyaga yetadi.

2. “Qisasi Rabg‘uziy”ning janrlar tarkibi

Qadim zamonlardan insoniyatga xavf solib kelgan illatlardan beri insonlarni qul qilib sotishdir. Inson tirik mavjudotlar orasida aql-idrok berilgan ongli xilqat bo‘lib, u o‘tgan zamonlarda ham ozod va erkin yashashga harakat qilgan. Uni erkidan mahrum qilishga hech kimni haqqi yo‘q. Qul qilib sotilgan kishilarning yashash huquqi, undagi erkinlik odam savdosi obyektiga aylanayotganlarning

yashash huquqi, erkinlik va daxlsizlik huquqlari qo‘pol ravishda buziladi. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida payg‘ambarlardan Yusuf payg‘ambarni qul qilib sotilishlari bayon qilinadi. Dastlab Yusuf payg‘ambar quduqdan chiqarilganda u zot qul sifatida sotib yuboriladi. Asarda bu holat quyidagicha bayon qilinadi: “Qachon Yusufni quzug‘din chiqadilar ersa qarindoshlaringa xabar bo‘ldi, keldilar. Molik Za‘rg‘a aydilar: “Bu bizning qochg‘unchi qulumiz turur. Uch kun bo‘ldi bizdin qochib turur, olur ersang sanga sotarmiz”, tedilar”¹.

Qul sotilganligi o‘sha paytlarda qulning puli olinganidan keyin sotgan odam imzo qo‘yib xat bitilgan. Ushbu xat ham asarda quyidagicha keltiriladi “Malik Za‘r aydi: “O‘z elingiz birla bitik bitib manga bering”, tedi. Aydilar: “Xat bitik berurmiz ul shart birlakim, azoqing‘a kishan urg‘il, qatig‘ ingirchoqg‘a mindurg‘il. Taqi yiroq yerga eltib sotg‘il”.

Yusuf payg‘ambarni sotib olgan Malik Za‘r Misrga kelib qul bozorda sotadi. Misrda o‘sha paytlarda qul bozori bo‘lib, bozordagi dallol orqali qullar kim oshdi savdosida sotilgan. Bu haqda asarda quyidagicha bayon qilinadi: “Misr xalqi aro xabar tushdikim, Malik Za‘r bir qul o‘g‘lon keltirmish. Kim ersa andog‘ ko‘rk ko‘rmishi yo‘q. Misr urug‘lari qamug‘ yusufni ko‘rgali keldilar. Kim Yusuf ko‘rdi esa qamug‘ oshiq bo‘ldilar. Yusufni sotg‘un olmoqg‘a orzuladilar. Tekma viloyatning beglari kelib olun, kumush, yilqi qora, mol tovar yig‘dilar. Yusufni olg‘uchi bo‘ldilar. Dallol aro kirib ortuqg‘a yetkardilar. Kun kelguncha bahosin orturdilar. Yorindasi kun molik taxt urdi ...Aymishlar. Misr elining dallollari yig‘ilib Yusufni qimmat qildilar...”

Qadim zamonlarda qullarni bozorga olib borib sotish odatiy hol bo‘lgan. “Qisasi Rabg‘uziy”da asarida qulchilik qoraladi. Asarda insonni inson qul qilib sotishi yomon odat ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Qulchilikning hozirgi zamondagi ko‘rinishi bu odam savdosidir. Odam savdosi hozirgi vaqtda zamonaviy ko‘rinishdagi jinoyatdir. Odam savdosi hozirgi

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 110 б.

kunda insoniyatning madaniylashgan qiyofasiga mos kelmaydigan illatlardandir. Bu illat hozirgi zamonda xalqaro miqyosidagi muammolardan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda dunyo bo'yicha 27 million kishi odam savdosi tufayli qullik holatiga tushib qolgan. Odam savdosi inson, uning daxlsiz huquqlari, qadr-qimmat, osoyishta hayoti va kelajagiga jiddiy putur yetkazuvchi, na sarhad, va na millat tanlamaydigan illat bo'lib, u o'z domiga ko'proq bolalarni, ayollarni tortishi bilan jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Jinoyat asosan, insonlarni og'ir sharoitlarda mehnat qilishga majburlash. Qullik, majburiy donorlik, fohishalik va boshqa maqsadlarda foydalanishdek jirkanch ko'rinishlari bilan namoyon bo'lmoqda. Odam savdosiga aylangan odam o'z insoniy mavqeini yo'qotib, o'zga insonlarni quliga aylanmoqdalar. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi kishilar esa insonlarni tovar, mahsulot sifatida pullab kelmoqdalar.

Odam savdosida asosan firibgarlik, aldov, tahdid va kuch ishlatib insonlarni qul qilishdir. Hozirgi paytda odam savdosi bilan shug'ullanish jinoyat hisoblanadi. Hur odamni aldab qul qilib sotish og'ir gunohdir. Bugungi kunda dunyo bo'ylab odam savdosiday o'ta xavfli illatning keng tarqalishi inson shaxsi, sha'ni, qadr-qimmat, shaxsiy huquq va ekinligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bugungi kunda dolzarb masalalarni o'z ichiga olgan odam savdosini oldini olish uchun va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda ham odam savdosini va uning jirkanch oqibatlarini bartaraf etish uchun qator chora va tadbirlar ishlab chiqildi.

Jumladan, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston qonunlarini qabul bo'lishi bilan ushbu jinoiy qilishga qarshi kurashish, uni oldini olish hamda bu illatdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishning huquqiy kafolatlari belgilab berildi. Odam savdosi odam huquq va erkinlarini g'ayri qonuniy ravishda aynan inson tomonidan kamsitilishi kechirib bo'lmas jinoyatdir.

Asardagi "Yusuf payg'ambar qissasi"da odam savdosi kabi qulchilikning ko'rinishi bayon qilinadi. Asarda o'sha zamonlardagi inson qadrining kamsitilishi bo'lgan odam savdosi qoralanadi.

Ma'lumki, Yusuf payg'ambar qissasi qissalarning go'zali hisoblanadi. Qissalarning go'zali bo'lgan bu qissa Nosiruddin Rabg'uziy tomonidan asarida qissa voqealarining berishilishi jarayoni go'zal uslubda berilgan. Unda ota mehri tengsizligining achchiq alami, manmanlikning oqibati, hasad olovning dillarda aks etuvchi adovati, musibatga chiroyli sabr qilish, har bir ishda xiyonatdan yiroq bo'lish kerakligi, omonatga xiyonat qilmaslik, tadbirkorlik qilish foydalari va shu bilan birga tuhmat va xiyonat kabi g'ayri insoniy xuqlqlardan saqlanish mavzusi olg'a suriladi.

Qissada sabr Yusuf payg'ambar qissalarida insonda mavjud bo'lgan barcha sifatlarga qaraganda qiyinchiliklarga sabr qilish fazilati yuksak darajada bayon qilinadi. Yusuf payg'ambar boshlaridan o'tgan barcha sinovlarga sabr qildilar. Yusuf payg'ambar o'z akalari tomonidan tagi zimiston quduqqa tashlab yuborilganligi, quduqdan topib olganlar tomonidan bir necha tangaga sotib yuborilganliklari, ayol makriga uchrab pokliklarini saqlaganliklari uchun tuhmatga uchrab zindonga tashlanganliklariga sabr qildilar.

Qissada hozirgi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan mavzulardan biri tadbirkorlik mavzusi bayon qilinadi. Qadim zamonlardan beri insonlar doimo ishbilarmenliklari, tadbirkorliklari bilan xalq orasida yaxshi nom chiqarganlar. Tadbirkorlik yurtga, vatanga, jamiyatga moddiy va ma'naviy manfaat yetkazuvchi vositadir. Sohibqiron Amur Temur ham o'z vaqtida mingta tadbirsiz odamdan bitta tadbirkor odam yaxshiligini ta'kidlab o'tganlar.

Tadbirkor degan so'zning ma'nosi ham tadbirkor odam jamiyat kishiarining ehtiyojini qondirish yo'li xizmat qiladi. Jamiyat kishilarining ehtiyojlarini qondirish uchun vaqt, mablag', kuch sarflaydi. Bu yo'lda turli xil mashaqqatlar ko'radi. Tadbirkorlikning turli xil ko'rinishlari bor. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo sohasida tadbirkorlik qilinadi. Tadbirkorlik natijasida insoniyatga kelayotgan xavfni oldi olinadi. Tadbirkorlik tufayli insonlarni ochlik oxiri turli xil kasalliklar halokatlar oldi olinadi. Tadbirkor jamiyat kishilarining kelajaggi uchun qayg'uradi. Inson kelajigi uchun qayg'urmaslik keyinchalik turli xil

mashaqqatlarni keltiradi. Tadbirkor kishi qiladigan ishini puxta biladigan biladigan kishi. Tadbirkor uzoqni ko‘ra biladigan, o‘ylab ish qiladigan kishidir.

Misr aziz (hokim)i Rayyon kelajakda bo‘ladigan ocharchilik haqida tush ko‘radi. Asarda bu haqda: “Anchada Rayyon malik tush ko‘rdi. Rayyon ma’nisi suv qonmish temak bulur. Erta ko‘pti qoxinlarni undatdi, aydi: “Tushum bulur: tengiz qiroginda o‘ltururman, tengizdin yetti sigir chiqar tuslari sarig‘ yuzlari oq, emuklaridin sut oqar, qamuga kurklug semiz. Yana yetti sigir kurdum oruq, orqalarinda tug ulturmish, oruqliqdin sungaklari ko‘runur. Kurmak yomon, emuklarinda sut yo‘q. Erinlari yorilgan, tishlari tunguz tishitek, burni yagan burnitek. Bu yetti oruq sigir ul yetti semiz sigirg‘a xamla qilurlar. Ular qochar, oruq sigirlar yetar, semiz sigirlarni yeyurlar. Alarning qursoqinda hech nimarsa ko‘runmas. Ani tonglab tururda yetti bosh bug‘doy ko‘rdum tengizdin unar, buylari teng. Ul oruq sigirlar ani yegali borurlar alar yemas erkan yetti bosh qurug‘ bug‘doy chiqar, tekma bir kurug bug‘doy yosh bug‘doyga chulgashib ularni quruturlar. Ani tonglab tururda bir yel qubar. Ul yetti bosh qurug‘ bug‘doylarni, ul yetti sigirni yo‘q qilur. Ani ko‘rub qurqtum, uyg‘ondim”, teyu muabbirlarga tushum yurugin yurung tedi” deyiladi.

Misr aziz (hokim)ining tush ta’bir qiluvchilari bu tushning ta’birini bilmaydilar. Shundan so‘ng ular tush ta’birini Yusuf payg‘ambardan so‘rashadi. Yusuf payg‘ambar tush ta’birini qilib yetti yil mo‘l-ko‘lchilik bo‘lishini va undan so‘ng yetti ocharchilik bo‘lib ko‘p kishi ocharchilikda halok bo‘lishini aytadilar. Odamlar kelayotgan ocharchilik xavfiga qarshi qanday tadbir qilish kerak deb so‘rashadi. Yusuf payg‘ambar bu xavfni bartaraf qilish uchun quyidagi tadbir qilinishi lozimligini aytadilar: “Ul yetti yili oshliq ko‘p bo‘lgandayegu choqliq ekar choqliq olib qolsunlar qolganini anborlasunlar”.

Misr aziz (hokim)i bu tadbirni Yusuf payg‘ambarga topshirib uni oziq-ovqat vaziri qilib qo‘ydi. Yusuf tadbir qilish kerak deb so‘rashadi. Yusuf payg‘ambar bu xavfni bartaraf qilish yaqinlashib oziq-ovqat taqchiligi xavfiga tayyorgarlik ko‘rdilar. Mo‘l hosil yetishtirilgan yillar mamlakatda tejamkorlik bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlatishni tushintiradilar. O‘sha yillar Misrda tejab tergap ishlatiladi.

Mamlakat dalalari yetishtirilgan don mahsulotlari ehtiyotkorlik bilan yig'ib olinadi. Maxsus g'alla saqlanadigan o'ralar qozdiriladi. Misr xalqiga kelgusida taqchilik qahatchilik yillari kerak bo'ladigan g'alla hisob-kitob qilinadi. Yusuf payg'ambar don yetish tirish va uni ssaqlash masalasida ham yangilik kiritadi. G'allani uzoq muddat saqlanishi uchun donini sitab olmasdan balki g'allani doni samoni bilan o'rib olib uni boshog'ini bilan o'rib olmishga va boshog'i bilan o'rib olingan g'allani maxsus qilingan misr hokimliginig g'alla saqlagich omborlarida saqlanadi. G'alla saqlanuvchi omborlar asosan yerdan chuqur xandaqlar o'ralar qozib unga samoni to'shab, g'allani boshog'i bilan o'rdirib omborxonalarda saqlanadi. Yusuf payg'ambar bu tadbirkorlik ishlari tufayli Misrda iqtisodiy jihatda kelgusda keladigan qahatchilikka batamom tayyorgarlik ko'riladi. Kutilayotgan qahatchilik keladi. Butun xalqlar shu jumladan Yusuf tadbir qilish kerak deb so'rashadi. Yusuf payg'ambar bu xavfni bartaraf qilishning akalar ham qahattchlik bo'roniga uchraydilar. Xalqlar orasida qahatchilik tarqalib, odamlar oziq-ovqat tanqisligiga uchraydilar. Qayerda oziq-ovqat bor bo'lsa, shu joylarga odamlar oziq-ovqat izlab borishga majbur bo'ladi. Shunda butun dunyoda Misrda g'alla borligi, Misr hokimining saxovatli kishi ekanligi to'g'risida gap tarqaladi. Eldan-elga, og'izdan-og'izga tarqab Yoqub tadbir qilish kerak deb so'rashadi.

Yusuf payg'ambar bu xavfni bartaraf qilish uchun o'zi yashiyotgan Kan'onga ham bu gaplar borib yetadi. Yoqub tadbir qilish kerak deb so'rashadi. Yusuf payg'ambar bu xavfni bartaraf qilish farzandlari ham o'sha paytdagi qahatchilik balosiga duch kelib. Oziq-ovqat tanqisligiga uchragan edilar. Ular ham oxirgi ovqat tanqiisligini bartaraf yetish uchun misrga g'alla so'rab borishga majbur bo'ladilar. Tadbirkor odam odamga xalq muhtoj, tadbirkor odam boqalarni yediradi ichiradi. Xalqimiz yaxshi tadbir yaxshi yashashning omili deb aytadi. Darhaqiqat, turmushimizning faravon bo'lishi insonlarning tadbirkor bo'lishlariga bog'liq.

“Yusuf payg'ambar qissasi”da ham tadbirkorlik yurt farovonligini ta'minlashi haqida bayon qilinadi. Qissada yana bir dolzarb mavzu bag'rikenglik mavzusi ham yoritiladi. Ma'lumki, bag'rikenglik tushunchasi axloqiy tushinchadir. Bag'rikenglik boshqalarga nisbatan ezgulik qilish, ularni kechirishdir. Barikenglik

barcha tillarda bir xil yoki bir-biriga yaqin mazmunga ega. Ularni umumlashtirib bag‘rikenglik so‘zi chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirilmilik, hamdardlik ma’nolarini ifodalaydi.

Qissada insonlarni kechirimli bo‘lishlari ularni bag‘rikenglik qilishlari fazilat ekanligi olg‘a suriladi. Qissada Yusuf payg‘ambar o‘z mul-mulkini yordam so‘rab kelgan ammo bir vaqtlari zulm qilgan akalaridan qizg‘anmaydi. Ular yomonlik qilgan bo‘lsalar ham ularga yordam beraveradi. Bu insonning boshqa insonlarga ibratli ekanligini, uni kechirimli bag‘ri keng inson ekanligi ko‘rsatatadi.

Kechirimlilik va bag‘rikenglik yaxshi insonlar ziynati bo‘lib kelgan. Bag‘rikenglik va kechirimli bo‘lishlik maqtovg‘a sazavor ish. U insonning yuksak fazilatli, yuksak axloqiy xulq sohibi ekanligi bildiradi. Kechirimlik va bag‘rikenglik tufayli insonlar boshqa insonlar uchun ibrat bo‘ladi, el og‘zida doston bo‘lishadi. Qissada Yusuf payg‘ambarning o‘z akalariga bag‘rikenglik qilib ularni avf etishlari quyidagicha bayon qilinadi: “Andin so‘ng qarindoshlari Yusufg‘a uzr qo‘ldilar. Yusuf ularning uzrlarin qabul qildi. Ularni qazg‘udin chiqardi. ...Yusuf uzrlarin qabul qildi va ularni uyotdin chiqardi”. Yusuf payg‘ambar qissalarida kechirimli bo‘lishlik yuksak insoniy fazilat ekanligi mavzusi ham beriladi.

Yusuf payg‘ambar qissada hikoya qilinga Yusuf payg‘ambarning akalari hasad qilib Yusufni otasidan mahrum qilishgan edi. Bo‘ri yedi deb yolg‘on gapirgan edilar. Uni o‘ldirish uchun quduqqa tashlagan edilar. Aslida qasosga loyiq kishilar edilar. Ammo Yusuf payg‘ambar qasos olishga haq va qodir bo‘lmb tukrib ularni kechirdilar. O‘zgalarni aybini kechirish uchun inson bag‘ri keng mard inson inson bo‘lishi lozim edi. Yusuf ularni avf etishlari ana shunday inson edilar. Shu xislatlari tufayli tarixda Yusuf ularni avf etishlari yaxshi fazilatli insonlarga ibrat bo‘lib qoldilar.

Bu ibratdan namuna olgan kishi mol mulkini qo‘lidagi mulkini qavmu qarindoshidan yoki bechora kishilardan qizg‘anmaydi. Agar ular yomonlik qilsalar ham ularga yordam bera boshlaydi. Bu esa uning ibratli xulq sohibi,

kechirimli.bag‘ri keng inson ekanliginai ko‘rsatadi. Yurtimizning turli sohalarda taraqqiy etayotgani, mamlakatimizdagi 130 ziyod millatlarning vatanimiz farovonligi yo‘lida yelkadosh bo‘lib mehnat qilayotganliklari, ilm-fan, sport borasida erishilayotgan yutuqlar Vatanimizning bag‘rikenglik o‘lkasi ekanligining yorqin namunasidir. Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida bayon qilingan bag‘rikenglik mavzusi hozirgi vaqtda ham yosh avlodni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashda ishida muhim asar bo‘lib xizmat qiladi.

Ayyub qissalarida insonga berilgan har qanday dardga sabr qilishlik mavzusi bayon qilinadi. Alloh taolo Ayyub payg‘ambar ni juda qattiq sinovlarga duchor etdi. Ayyub payg‘ambar hayoti davomida erishgan obro‘si, mol-dunyosi va bola-chaqasidan butunlay ajralgani yetmasdan unga og‘ir va alamli dard ham berildi. Bu sinov muddati uzoq davom etdi. Qissada musibatlarga sabr qilishlik. Inson hayoti davrida turli sinov va kasalliklar, omadsizliklarga duchor bo‘ladi. Bu narsa ko‘pchilik o‘ylagandek, insonning yomonligi evaziga kelgan balo bo‘lmaydi, balki inson budunyoda imtihon qilinganlik uchun kelgandir. Chunki dunyo qilmishiga yarasha jazolanadigan joy emas, balki oxirat dunyosi uchun tayyolanadigan joydir. Qilgan ishiga jazo yoki mukofot u dunyoda beriladi, dunyo oxrat ekinzori bo‘lganligidan ishi yurishayotganlar ham yurishmayotgan kishilar ham bor. dunyoda rohatda yashayotgan ham qiyinchilikda yashayotgan kishilar ham bor. odamlar orasida eng ko‘p sinovga duchor bo‘ladiganlari ham payg‘ambarlardir. Qissada har bir inson kelgan musibatga bardosh bersa, unga sabr qilsa, uning muvaffaqiyatsizligi muvaffaqiyatga almashadi. Sabr tufayli mukofot qo‘lga kiritiladi.

Qissada bayon qilinishicha, Ayyub payg‘ambar musibatdan oldingi hayotlarida doimo yaxshilik qilganliklari bunga shayton hasad qilganligi va u: “Ayyubning yaxshilik qilishi unga berilgan ne‘mat tufaylidir” deydi. Ammo qissa shuni isbotlaydiki, Ayyub payg‘ambarning yaxshilik qilishlari u zotga berilgan ne‘matlar tufayli emas, balki Ayyub payg‘ambarning dunyo imtihonlariga sabrli ekanliklari bilan isbotlanadi. Musibat Ayyub payg‘ambar ustlariga ustma-ust yog‘ilsa ham Ayyub payg‘ambarning sabr-toqatlari mustahkamlandi. U zot yaxshi

kunlar kelishidan umidlarini uzmadilar. Oxiri yaxshi kunlarni qo‘lga kiritdilar. Shayton esa noumid bo‘ldi. Bu haqda asarda:

“Ayyub ularni avf etishlari quyidagicha bayon qilinadi: yg‘ambar to‘qson uch yosh erdi. Yetti o‘g‘li va yetti qizi bor edi. Toati bisyor edi. Shayton anga hasad qildi. Munajaat qildi. Aydi iloha Ayyub sanga ne‘matda toat qilur. Agar moli bo‘lmsa mehnatg‘a tushsa toat qilmag‘ay. Yorliq keldi. Ey mal’un ayyubning moli uzra sanga tarif berdim. Shayton suyundi, keldi Ayyub payg‘ambarning tevalariga, uf qildi o‘t chiqti tevalari kuydi yana bordi qo‘y-qo‘zisiga uf qildi og‘zidin o‘t chiqdi qamug‘i kuydi yona. Ayyub payg‘ambarg‘a sarbon qo‘ychi bo‘lib keldi.

Aydi: “Ey Ayyub o‘t keldi qamug‘ molingni kuydirdi. Teb aydi Ayyub payg‘ambar: Ani menga tangri taolo bermish erdi oldi tedi yana toatg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Yana beykol ekinlarina kuydirdi. Dehqon surati birla Ayyub payg‘ambarga keldi. Aydi: “ey Ayyub, o‘t keldi qamug‘ oshlig‘ingni kuydirdi” tedi. Ayyub payg‘ambar aydi: “ani Izi azza va jalla bermish erdi yana oldi” teb toatga mashg‘ul bo‘ldi. Iblis aydi: “Ilaho odam o‘g‘li mol tag‘orig‘a sabr qilur o‘g‘il-qizig‘a sabr qilmas. Menga o‘g‘il-qizi uza tasrif bergil tedi. Xitob keldi berdim. “Berdim teb, o‘n soni o‘g‘il qizi ustodi birla saroy ichida o‘qur erdilar. Iblis kelib ul saroyini tebdi saroy yemiruldi. O‘g‘lonlari ustozi birla o‘ldilar.

Yana muallim surati birla kelib Ayyub payg‘ambarg‘a aydi: “Ey Ayyub saroy yiqildi o‘g‘lonlaring o‘ldi. Borib o‘likin qum tosh ostidan chiqorg‘il Ayyub payg‘ambar aydi: “Ul o‘g‘lonlarni izi azza jalla bermish erdi. Yana oldi teb ibodatg‘a turdi. Iblisning qayg‘usi ortti yana borib hazratg‘a zoriylik qildi. Aydi: iloha odam o‘g‘li qamug‘ narsaga taot qilur ammo o‘ziga balo teksa toat qilmas. Endi menga Ayyub uzra tasrif bergil, tedi. Yorlig‘ keldi. Ey mal’un tasrif berdim. Iblis keldi Ayyub payg‘ambarg‘a hech turluk tasrif qila olmadi havo eshig‘ erdi. Ayyub payg‘ambarni ko‘rdi terlamish olida ulturub yuziga urdi. Ayyub payg‘ambar ul sovuq yelga rohatlandi ko‘ksin ocha berdi. Shayton ko‘ksiga taqa urdi ul shayton dami Ayyub payg‘ambarning qamug‘ tanig‘a yoyildi. Kechib qovurchoq bo‘la boshladi. Har qovurchoqda ikki ikki shor qurt zohir bo‘ldi. Ayyub

payg‘ambarning etin yey boshladilar. Ul qurtlar ko‘paydilar. Ba’zi aytur avval ikki so‘ngra ming qurt bo‘ldi. Ba’zi aytur qirq ming bo‘ldi. Xullasi kalom, Ayyub payg‘ambarning etin yedilar. Tukattilar suvmaklarida singirlar qoldi”, deyiladi.

Ayyub payg‘ambar o‘zlariga kelgan baloga ham sabr qildilar. Natijada dunyo sinovlariga sabr bilan javob berdilar. Natijada, Ayyub payg‘ambar sabrni mukofotini oldilar, ya’ni avval yo‘qotgan baxtva farovonliklari qaytib keldi.

“Ayyub payg‘ambar” qissalarida dunyo sinovlariga sabr qilish fazilat ekanligi va u bilan ikki dunyo saodati qo‘lga kiritilishi bayon qilinadi.

Insonning axloqiy pok bo‘lishi dunyo imtihonlariga, balo va ozorlarga sabr qilib, atrofidagi insonlarga chiroyli muomila qilish bilan bo‘ladi. Insonlarga xushmuomila bo‘lish, ular bilan chiroyli suhbatlashish inson axloqining pokligiga dalolat qiladi. Xalqimizning odat va qadriyatlar axloqiy poklikni targ‘ib qiladi. Bu odat va qadriyatlar ularning yuksak turmush tarzini shakllantirish uchun xizmat qiladi. G‘azabi kelgan paytda sabrli bo‘lish, ota-ona, qarindoshlariga yaxshilik qilish, va‘dasiga vafoli bo‘lish, har qanday holatda rost so‘zlik bo‘lish, o‘zgalar ayb-nuqsonlarini kechirish, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish kabi xulqlar pok axloqlar hisoblanadi.

Insonlar orasidagi yuz beradigan turli xil ixtilof, kelishmovchilik kabi muammolarning asosiy sababi shu insonlarda axloqiy poklikning yo‘qligidir. Bu muammolarning yechimi esa axloqiy poklikdir. Axloqiy poklik qo‘pol, ko‘ngil qoldirar so‘zlardan tiyilib, shirin so‘z, xushmuomilalik bo‘lishdir. Yer yuzida hayot bor ekan insonlar o‘rtasida doimo ixtiloflar bo‘lib kelgan. Insonlarning bu ixtiloflari sabablardan biri bir-birovga chiroyli muomila qilmaslikdir. Inson boshqa bir insonga chiroyli muomila qilsa va unga ham chiroyli javob qaytarilsa insonlar o‘rtasida ixtioloflar kamaygan bo‘lardi.

Asarda payg‘ambarlar bilan ixtilof qilgan insonlarning muomilalari bayon qilinadi. Bu muomilalarda payg‘ambarlar yolg‘onni yo‘qqa chiqaruvchi haq gaplarni chiroyli muomila bilan yetkazganliklarini ko‘ramiz. Bu asardagi Muso payg‘ambar bilan Fir‘avn o‘rtasidagi munozarada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarda aytishicha, Alloh taolo Muso payg‘ambarni chaqirib, Fir‘avn u xudolik

da'vo qilayotganini, uning huzuriga borib yumshoq muomila qilishni buyuradi. Bu holat asarda shunday bayon qilinadi: “Yorliq keldi fir'avng'a borg'il. ...Yo Muso fir'avng'a yumshoq so'zlang...”¹.

Muso va Horun payg'ambar Fir'avnning oldiga yetib bordilar. O'rtada suhbat boshlandi. Fir'avn ularning gaplarini tingladi va biz o'rganishimiz mumkin bo'lgan savol-javob bo'ladi. Asarda: “Aymishlar Muso Horun birla Fir'avn eshikinga bordilar. Bir yilg'a tegi yo'l bo'lmadi. Qachon Fir'avng'a kirdilar ersa Fir'avn Musoni tanidi, so'rdi: “Kimsan?” Aydi: “Ikagu tengrining yalavochlarimiz, senga kelduk”. Aydilar: “Yorlig' ul turur bani Isroilni bizning birla izg'il”. Fir'avn Musodin qo'rqmish erdi. Aydi: “Bilmazmen seni”.

Yana Fir'avn Muso va Horun bilan suhbatni boshladi. Fir'avn Muso payg'ambarga: “Ey Muso. Men seni kichiklikda saqladim. O'g'ul tutdim necha yillar meni birla bo'lding oni unutdingmu? Meni panohimda katta bo'lding, endi meni ne'matlarimga shukr qilish o'rniga, manga qarshi chiqayapsanmi? Bu men qilgan yaxshiligim evazigami?” dedi.

Muso payg'ambar Fir'avn odamlarga xalqqa zulm qilmaganida, Muso payg'ambar Fir'avn saroyiga kelib qolmagan va o'z ota-onalari bag'rida yashagan bo'lishlarini aytadilar. Va unga chiroyli muomila qiladilar. Ammo Fir'avn qo'pollik qilib, yaxshi muomila qilmaydi. Asarda Muso payg'ambarning chiroyli, yumshoq muomila qilib axloqiy pokliklarini ko'rsatilsa, Fir'avn esa johilligi. Uning axloqiy tubanligi ko'rsatiladi. Inson axloqiy nopoklikdan poklanmas ekan, u o'zini boshqalardan baland qo'yish, boshqalarni kamsitish, xudbinlik kabi illatlardan uzoq bo'laolmaydi. Bu illatlar axloqiy poklikka zid xulqlardan hisoblanadi. Asrda chiroyli muomila va axloqiy poklik insonning ziynati ekanligi uqtirib o'tiladi.

Hayvonga shafqatli bo'lish mavzusi qadimdan eng dolzarb mavzulardan bo'lib keladi. Hayvonlar insonning shafqatiga muhtoj bo'lgan mavjudotlardandir. Hayvonlarga shafqat qilish, ularni yo'qolib ketmasligini oldini olish haqida xalqimiz katta e'tibor berib keladi. Hayvonlarga ozor bermaslik, xalqimiz

¹ Рабғузий. Н. Қисаси Рабғузий. Тошбосма. 242-243-бетлар.

hayvonlarga o'z vaqtida g'amxo'rlik qilish, kasallansa davolash kabi ishlar qilib kelingan.

Asardagi "Qissai Solih yalavoch payg'ambar"¹da hayvonga shafqat qilish mavzusi bayon qilinadi. Solih payg'ambar samud qavmini haq yo'lga undadi. Samud qavmi solih payg'ambardan mo'jiza ko'rsatishni so'radi. Ular bir katta toshni ko'rsatib, shundan bir tuya chiqsin, dedilar. Bu haqda asarda: "Aydilar: "Bu tog'din bizga bir qizil tuluk ingan chiqarg'il. Bizning ilakimizda bo'talasun, bizga sut bersun, biz ichaling". Ul tog'da bir qo'l bor erdi, Kayna otlig'. Suvlari andin kelur erdi. Bularning otalari samud bir kun qo'lda bir toshdin un eshitildi: samud bo'zuni bu toshdin halok bo'lg'usi. Aydilar: "Ushbu toshdin bir ingan chiqarg'il, qizil tuluk, tili qora, bo'yni yo'g'un, alini tuluk, yelini yetilmish".

Solih duo qildi: "Iziyo, sen bilursan erduk sening qavming bu mo'jizani qo'lg'aylar. Biz ani bu tosh ichinda anukqlab tururbiz. Sen duo qilg'il, biz beraling". Solih duo qildi. Ul tosh igranu boshladi. Bir ingan chiqdi. Ular tilamishdek. Bir qonchada ingan bo'taladi. Ingan bo'tasi birla qo'bdi, o'tlayu boshladi. Solih payg'ambar shunday dedilar: "...bu tevaga qotilmang, emgatmang, urmang, o'lturmang. Bu ishlarda birin qilsangiz, sizlarga azob kelgay".

Solih payg'ambar qissalarida tuyaga ozor bermaslik haqida buyuradilar. Ammo qavm orasida yovuz kishilar ham bor edi. Ular bolasi bilan boshqa birovlariga ozor bermasdan yaylovda yurgan tuyani o'ldirish payiga tushadilar. Tuyani o'ldirsanglar boshlaringizga balo keladi deb ogohlantirganliklariga qaramay, tuyani o'ldirishadi. Bu haqda asardagi she'rda shunday deyiladi:

Tondilar haqdin qamug'i, qildilar ko'p ma'siyat,

Uqmadin Solih so'zin ham ushbu ingan qissasin.

Keldi yugurub ikki bo'zchi bir azoqin kestilar,

Bo'tasi ingrab qayitti ostilar uch sahbasin.

Uch kun ichra bo'ldilar sarig', qizil ham qap-qaro,

Qudrati birla ug'on qodir yemurdi barchasin.

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 55-59 б.

Inson tevarak arofdagi o‘simlik bo‘ladimi, hayvon bo‘ladimi ularga shafqat qilish lozim. Tabiatga inson ozor berar ekan erta bir kun bu ozori o‘ziga balo bo‘lib qaytadi. Natijada qavm tabiatga bergan ozori tufayli kelgan balo tufayli halok bo‘ladi. Inson o‘zini qurshab turgan tabiatga, undagi nisbatan mehrli bo‘lishi lozim. Mehr ko‘rsatgan inson albatta, mehr ko‘radi. Bu mavzu Solih payg‘ambar qissalarida bayon qilinadi.

Xavfsizlik hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining “Qissai Zulqarnayn” qissasida insonlarning tinch-osuda hayotiga xavf soladigan Ya’juj va Ma’jujlarga qarshi insonlarning birgalikda kurashish mavzusi aks ettirilgan. Qissada aytilishicha, Iskandar Zulqarnayn oldin mag‘ribga keyin mashriqqa esa qarab yo‘l yuradi. Mashriqda bir xalqni uchratadi. U xalqlar Iskandar Zulqarnaynga o‘zlariga doimo xavf solidigan ya’juj va ma’juj degan xaqi haqida gapirib berishadi. Har yili Ya’juj va ma’jujlar bu xalqqa xavf solishadi. Shu sababli bu xalq Iskandar Zulqarnaynga shu havfni bartaraf qilishni so‘rashadi. Bu havfni bartaraf qilsa Iskandarga xiroj to‘lashlarini bayon qilishadi. Bu asarda quyidagicha aks etadi:

“Yo‘l tutib (Iskandar Zulqarnayn) mag‘ribga bordi. Mashriqqa ham andag‘-o‘q yo‘l tutib bordi, yana ayndin tebradi. Iki azin tog‘ga tegdi, orasi qo‘l. Ul tog‘ og‘zida xaloyiq erdi, qamug‘i musulmon. Zulqarnayn anglamadi. Mavlo taolo Zulqarnaynga ta’lim qildi, so‘zlashtilar ular tek kim ersa yo‘q erdi. Zulqarnayn cherikin ko‘rub tongladilar va ancha bo‘yunsunub o‘tru yurudilar. Musulmonlik oshkoro qildilar. Zulqarnayn ularni og‘irladi, ezgu va’dalar qildi. Ular aydilar: “Ey Zulqarnayn, bu tog‘ orasida Ya’juj va Ma’juj bor. Tekma bir yilda bir chiqib bizga kelurlar, ortuq ishlar qilmazlar. Ulug‘larimizni yeyurlar, qurug‘larin olib borurlar. Biz zoyil qolurmiz. Aymishlar, ular ikki qarindosh erdilar. Bular ikki bo‘lak ul ikagut urug‘i tururlar. Sonlari, saqishlarlari yo‘q. Aymishlar, tekma biri o‘z o‘ngida o‘g‘lonlari ming mallohlig‘ (cherikka) yarag‘utek er ko‘rmaguncha o‘lmak yo‘q. Ularg‘a xotunlari ham andag‘-o‘q teb aydi. ...andag‘i kishilar Zulqarnaynga aydilar: “Bo‘lg‘aymu bizning birla ular orasinda bir tom qo‘porsang, kela bilmaslar. Biz ham ulardin qutulsak, senga yillar xiroj beraling”.

Iskandar Zulqarnayn ularning hech narsasi kerak emasligini, faqat birgalikda harakat qilib, xavfni bartaraf etishlarini aytadi. Asarda bu haqda: “Zulqarnayn aydi: “Mavlo taolo menga bergan ne’mat mashriqdan mag‘ribg‘a tegi siz bergan xirojdin ortuqroq turup. Ul molga hojatim yo‘q. Ammo sizlar manga yori bering, orangizda tom qo‘parayin. Ular sizga kelmasunlar”. Ular qabul qildilar”.

Iskandar zulqarnayn bilan birlashgan xalq xavf soladigan dushmanning chiqadigan joyiga temir va misni eritib to‘g‘on hosil qiladi. Va xavf bartaraf etiladi. Bu haqda asarda: “Boring, kirpich keltiring” tedi. Kelturdilar, ikki tog‘ orasinda kirpich mengizlik. Andin so‘ng ostinda qo‘ydilar, ko‘mur mengizliklar qo‘ydurdi. “Qamug‘i o‘t bo‘lg‘uncha urung” tedi. Andin so‘ng aydi: “qitr kelturung”. Qitr eritmish baqir bo‘lur. Aymishlar, ikki tog‘ orasi yuz yig‘ochlik yer erdi. Suvga tegi yerni qazdurdi, ellik yig‘och bir tomning eni bo‘ldi. Asarda bayon qilingan xavfsizlik mavzusi hozirgi kunda ham dolzarb mavzuligini yo‘qotmagan. Asarda hamisha insonlar insoniyatga xavf solayotgan xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashishlari lozimligi va bu birgalikda kurashish esa kutilgan natijani olib kelishi uqtiriladi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari “Zakariyo va Yahyo va Maryam va Iso alayhimus-salom qissasi” bo‘limida insonning o‘zi mo‘jiza ekanligi va u mo‘jizalar ko‘rsatish qobiliyatiga ega ekanligi mavzusi bayon qilinadi. Iso payg‘ambarning tug‘ilishlari haqida asarda shunday hikoya qilinadi: “Mavlo taolo Jabroilni izdi, bir yigit suratlig‘. Ani ko‘rdi ersa: “Sendan rahmat, tengrig‘a sig‘inurman, sinuq muttaqiy er ersang”, tedi. Aning uchunkim, arig‘ eranlarni rahmat tengridin qo‘rquturlar. Jabroil aydi: “Qo‘rqmag‘il, man odamiy ermasman, tengri yuborgan farishtamen. Senga arig‘ o‘g‘ul bag‘ishlagayin teyu keldim. Savol: Jabroil o‘g‘ul bag‘ishlag‘ayin temak yetak ravo bo‘lur? Qamug‘ini bag‘ishlag‘an Mavlo turur. Javob: Munda narsa muzmir bor. Ya‘ni man kedim senga ayg‘alidikim. Mavlo taolo yorliqar: Sanga arig‘ o‘g‘ul bag‘ishlayurmen. Maryam aydi: “Manga o‘g‘ul qaydin kelsun, hech odam menga yovig‘ani yo‘q”. Jabroil aydi: “Andag‘-o‘q turur. Mavlo taolo ne tilasa qilur” teb. Jabroil Maryamning yaqosin tutub urdi. Maryam Isoga yukguk bo‘ldi. Aymishlar, o‘g‘lon olti oyda tug‘sa tirilur. Sekiz oydva tug‘sa

tirilmas. Iso olti oyda tug‘di, tirildi. Ul anga mo‘jiza erdi. Aymishlar, Yahyo va Iso ikkilari onalari qornidanda so‘zlashar erdilar”¹.

Iso payg‘ambarning o‘zlari insonning o‘zi mo‘jiza ekanligi ko‘rsatadi. Qachonki, Iso payg‘ambar tug‘ilganlarida odamlarga o‘zlari haqida gapiradilar. Asarda bu haqda: “Aymishlar, Maryam kelganda qavm solih erdi. Maryamning o‘g‘ul qo‘ndoqlab kelurin ko‘rdilar. Aydilar: “Ey Maryam, yavloq yarog‘siz ish qilding. Sendan burunqi bu ishni qilmadi. Otayng, onang yovuz ermas erdi. Maryam Isoga ishorat qildi. Ya‘ni xabar so‘rsa mundin so‘rung, yiroqdin kelgan bu erdi, men manda-o‘q erdim. Aydilar: “Beshikdagi o‘g‘lon birla netak so‘zlashling”. Qachon Iso ularning so‘zin eshitti ersa, ema tururda yuzin ularg‘a o‘vurdi. Aydi: “Men Mavlo taoloning quliman”. Ul o‘z qulluqing‘a iqrar qildi. Yana aydi: “Tengrining bandasiman, birlikinga kitob”. Yana aydi: “Menga kitob bergusi, ya‘ni Injil taqi, yalavochliq bergusi”, dedi.

Iso payg‘ambar o‘zlari mo‘jiza bo‘lishlari bilan birga, payg‘ambarlik davrlarida turli xil mo‘jizalar ham ko‘rsatdilar. Odamlar Iso payg‘ambardan mu‘jiza talab qildilar. Iso payg‘ambar yashagan davrda turli kasalliklar tarqalgan bo‘lib, bu kasalliklarni davolash uchun tabobat ilmi ojiz qolayotgan edi. Shu sababli o‘sha paytda mutlaqo davosiz hisoblangan shabko‘r, tug‘ma ko‘r, pes-maxovlar Iso payg‘ambarning qo‘l silashlari bilan tuzaldi. Asarda: “Aydilar: “yalavoch ersang mo‘jiza ko‘rguzgil” aydi: “Mo‘jiza ul tururkim, o‘lukni tirguzurman. Xastani yaxshi etarman. Pesni to‘g‘a. Ko‘zsizni ko‘rar qilurman”, dedi.

Ammo o‘sha davr odamlar Iso payg‘ambardan yanada kuchliroq mo‘jiza ko‘rsatishni talab qilishdi. Iso payg‘ambar allohning izni bilan o‘lgan o‘liklarni tiriltirdilar. “Mavlo taolo Isog‘a mo‘jizalar berdi, qamug‘ o‘tachi ojiz bo‘ldilar, o‘luk tirguzmaktek”.

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – 82 б.

Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Zakariyo va Yahyo va Maryam va Iso alayhimus-salom qissasi”da insonning o‘zi mo‘jiza ekanligi bayon qilinadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi hazrati payg‘ambarimiz Muhammad payg‘ambar qissalari orqali barkamol inson mavzusi bayon qilinadi. Barkamol inson kim? Yuksak ongli va ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, ruhan va jismonan poklangan insonni barkamol inson deyish mumkin. Ham ruhan, ham jismonan poklangan, qalbini poklagan inson go‘zal axloq, yuksak odob sohibiga aylanib, barkamol inson darajasiga yetadi.

Muhammad payg‘ambar tavallud topadigan kechalari bir nur paydo bo‘lib, uning ziyosi atrofni yoritib yuboradi. Asarda bu quyidagicha beriladi: “Tun yarimi bo‘ldi ersa og‘riq, sizloq yo‘q ekan saqfi havoga ko‘tarildi. Olam ravshan bo‘ldi. Ko‘rdikim, jumla maxluqot havoda yig‘ilib tururlar”¹. Muhammad payg‘ambar ajdodlari “Qisasi Rabg‘uziy” quyidagicha beriladi: “Muhammad ibni Abdulloh ibni Abdul Mutallib ibni Hoshim ibni Abdi Mannof ibn Qusay ibni Kilob ibni Murra ibni Ka‘b ibn Luvay ibni Adiy ibn G‘olib ibn Fihri ibn Molik ibn Nazr ibn Huzayma ibn Mudrika”.

Asarda hikoya qilinicha, Muhammad payg‘ambar yetimlikda katta bo‘lgan juda sabrli, boriga qanoat qiladigan odam edilar. Bir necha kunlarni ba‘zan ovqatsiz o‘tkazar edilar. U kunlarda payg‘ambarimizga xurmo va suvning o‘zi kifoya qilar edi. Payg‘ambarimiz sodda hayot kechirar va birovga o‘z ahvollaridan shikoyat qilmas edilar. U zot oddiygina kiyinib, g‘oyatda oddiy taom yer edilar. Kiyimlariga o‘zlari yamoq solar. Qo‘l tegirmonida un tortar edilar. Kiyimlarining tozaligiga nihoyatda katta ahamiyat berar edilar. Payg‘ambarimiz og‘izni badbo‘y qiladigan narsalarni xushlamas edilar. Ovqatdan oldin ham, keyin ham qo‘llarini yuvar, og‘izlarini chayar edilar. Tish tozalayotganda doimo misvok ishlatar edilar. Tanalarini toza tutar, xush bo‘y narsalardan foydalar edilar. Xulqlari juda muloyim edi. Hech kimga yomon gapirmas, qo‘pol muomila qilmaganlar. Butun

¹ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Иккинчи китоб. – 104 б.

harakatlarida o'rta hollikni tanlar edilar. Biror joyga bormoqchi bo'lsalar, o'ng-so'lga alanglamasdan, to'g'ri yurib borar edilar. Yurganlarida yonlaridagilar orqada qolib ketar, hatto u kishiga yetib olish uchun yugurishga majbur bo'lishar edi. Payg'ambarimiz hazil-mutoyiba qilsalar odob doirasida, haq va rost so'z bilan hazillashar edilar. Birovni yomonlab gapirmas, hech kimni g'iybat qilmas edilar. Birovni haqoratlamas, boshliqlarning sirlarini bilishga harakat qilmas edilar. Birov bilan tortishishni, bahslashishni yomon ko'rar edir. Hech qachon to'g'rilikdan, rostgo'ylikdan ajralmaganlar va yolg'on gapirmagan edilar. U zot yolg'ondan, yolg'onchilardan nafratlanar edilar. Asarda berilgan she'rda bu haqda shunday deyiladi:

Keldi kavnaynni kezibon topti issig' o'rnini,

Tonglashib qoldi xaloyiq qodir Olloh qudratin.

Man Muhammad ummatiman teyu yolg'on so'zlama,

Ne Ug'on topug'in qilursen, ne rasulning sunnatin.

U zot musibatlarga ham bardoshli edilar. Do'stlariga hurmat va ehtiromlari cheksiz edi. Insonlar yig'ilib turgan joyga kelsalar joy tanlamas. Qayer bo'sh bo'lsa darhol o'tirib olar edilar. Uylariga kelgan mehmonlarga o'zlari xizmat qilar edilar. Bolalarni juda yaxshi ko'rar edilar. Hayoti davomida biror bolaning qalbini o'ksitmagan edilar. Payg'ambarimiz faqir va miskinlarga, bechora insonlarga juda shavqatli edilar. O'zlari muhtoj bo'lib turganlarida ham birovlariga taomlarini berar edilar. Ammo u zot insonlarning tilanchilik qilishlarini xush ko'rmas edilar. Inson o'z tirikchiligi uchun hamisha mehnat qilishga buyurar edilar. O'zlari ham cho'ponlik qilgan, savdo ishi bilan shug'ullangan edilar. Uy ishlarida ham ayollariga yordam berar edilar.

Muhammad payg'ambar doimo insonlarga mehnat bilan umr kechirishni tavsiya qilganlar. Payg'ambarimiz odamlarga birinchi bo'lib salom berar, o'zlarini baland olmas edilar. Odamlardan xato kamchiliklarni kechirar edilar. Birovni aybi-nuqsonni yuziga solmas edilar. U zot go'zal xulq sohibi va barkamol inson edilar.

Barkamol insonning yana bir xislati johil odamlarga ma'rifat bilan javob beradi. Asarda payg'ambar Muhammad Abujahil kabi kishilarning ishlariga ma'rifat bilan javob berganliklarini quyidagicha beriladi: "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi Hazrati payg'ambarimiz Muhammad payg'ambar qissalari orqali Barkamol inson mavzusi ko'tariladi.

"Qissai Rabg'uziy"ning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda umuminsoniyatga togishli muhim masalalar ilgari surilgan. Bunday hol, ayniqsa, barcha payg'ambarlar, xususan, Muhammad payg'ambar payg'ambarga tegishli o'rinlarda hayotiy dalillar bilan bog'lab ko'rsatilgan. Payg'ambar qirq yoshga yetganda, unga payg'ambarlik to'g'risida vahiy keladi. U ham boshqa payg'ambarlar kabi Xudo tomonidan xalq orasiga elchi qilib yuboriladi. Muhammad payg'ambar xalqlar orasida tinchlik, totuvlik o'rnatish, Xudo va uning payg'ambarlarini tan oldirish maqsadida targ'ibot ishlarini olib boradi. Ammo bu ish oson kechmaydi. Chunki Abu Jahl boshliq fitnachilar unga qattiq qarshilik ko'rsatadilar, Muhammad payg'ambar ustidan turli ig'volar tarqatadilar. Lekin xalq sofdil, Muhammad payg'ambarni o'zining ma'naviy rahnamosi deb biladi va har qanday holatda ham uning ko'rsatmasi bilan ish tutib, g'alaba qozonadi. Xaqiqatan ham Muhammad payg'ambar olg'a surgan tartib va qoidalar hozirgi vaqtda ham o'z kuchini yo'qotmagan, buni afkor omma qayta-qayta tilga olib ta'kidlamokda. O'tmishda Muhammad payg'ambar va uning tarafdorlari kofirlarga qarshi kurash olib borganda, ular hozirgi bizning noqis aqlimiz bilan tushunilgan g'ayridinlarga qarshi emas, balki Fir'avn, Abu Jahl, Yazid singari (buni hamma payg'ambarlar faoliyatida ham ko'rish mumkin) jamiyat osoyishtaligiga tajovuz soluvchi, o'z maqsadlari yo'lida begunoh kishilarning qonini to'kuvchi (bundaylar hozir ham topiladi) iblissifat razil kimsalarga qarshi kurash olib borganlar.

Asarda payg'ambarimizning hayot yo'llari hikoya qilinib, u zotning hayot yo'llari har bir inson uchun katta tarbiya maktabidir. U zoti sharifning hayot yo'llari haqida asarda berilgan qissani o'qib chiqqan har bir inson bunga amin bo'ladi. Bugungi Mustaqillik kunlarda payg'ambarimiz haqidagi qissani o'qish ma'naviyatimiz olamini kengaytirsam, u zot odob-axloqlaridan ibrat olish esa bizni

barkamollik sari yetaklaydi. Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyoti, xalqimizning tinch va osiyishtaligi yo'lida barakali mehnat qilishimizda payg'ambarimizning go'zal xulqlari bitilgan "Qisasi Rabg'uziy" asari biz uchun yaxshilik manbai bo'lib xizmat qiladi.

II bob.Bo'yicha xulosa.

1."Qisasi Rabg'uziy" asari shu vaqtga qadar faqat diniy mazmundagi asar sifatida talqin etib kelingan. Aslida qissa va hikoyatlar, hikmat va latifalar zamiriga muallif tomonidan mohirlik bilan singdirib yuborilgan o'nlab dunyoviy mazmundagi masalalar bahsi bu asarning Sharq adabiyotidagi "Kalila va Dimna", "Guliston", "Bo'ston" singari didaktik asarlar qatorida turadigan badiiy asar ekanining yorqin dalilidir.

2.Asarning mavzular ko'lami badiiy adabiyot aspektida hech qachon tadqiq qilinmagan. Faqat diniy masalalar yoritilgan asar sifatida e'tirof etilgan.

3."Qisasi Rabg'uziy" o'zbek (turkiy) adabiyotga xos o'nlab janrdagi asarlarning birinchi namunalarini o'zida mujassam etgani bilan alohida e'tiborga sazovordir. Unda qissa, hikoyat, rivoyat, hikmat, latifa singari nasriy; g'azal, qit'a, murabba' singari she'riy janrlarning dastlabki namunalari mavjud.

4.Asardagi ayrim janrlar o'zining keyingi taraqqiyoti davomida butunlay o'zgarib ketgani kuzatiladi. Jumladan, Rabg'uziy tomonidan "latifa" sarlavhasi ostida berilgan qismlarda hozirgidek kulgi emas, aksincha kichik hajmdagi hikmatli gap (maqol, aforizm) berilgan.

5.Asarda 600 misraga yaqin she'riy asar mavjud bo'lib, bu Rabg'uziyning yuksak shoirlik salohiyatidan dalolatdir.

6.Rabg'uziy o'zbek (turkiy) adabiyotda ilk bor taxallus qo'llagan ijodkor hisoblanadi.

7.Rabg'uziy nafaqat mohir qissaxon yozuvchi, ayni paytda o'zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo'lgan dastlabki nasriy asar muallifi va ayrim she'riy janrlarning ilk boshlovchisi hamdir.

III BOB. “QISASI RABG‘UZIY” NUSXALARINING ILMIY- TEKSTOLOGIK TADQIQI

1. “Qisasi Rabg‘uziy” asarini ilmiy-tekstologik o‘rganish prinsiplari

“Qisasi Rabg‘uziy” mashhur tarixchi va yetuk adib Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy tomonidan yaratilgan o‘zbek mumtoz adabiyotining nodir asarlaridan biridir. Asar XIV asrda yaratilgan bo‘lib, uning turli davrlarda ko‘chirilgan bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanib kelmoqda. Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa XV asrda ko‘chirilgan, hozirgi kunda u asarning eng qadimiy nusxasi hisoblanadi. Bu nusxaning faksimilesi mashhur matnshunos K. Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagen shahrida nashr qilingan. Asarning boshqa nusxalari keyingi davrlarda ko‘chirilgan bo‘lib, ularning leksikasi vaqt taqozosiga ko‘ra o‘zgargan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, u Toshkent va Qozon shaharlarida litografiya usulida bir necha bor nashr qilingan. Rus turkiyshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan 1859 yilda asarning to‘la matni Qozon shahrida nashr qilingan bo‘lib, u nisbatan keyinroq ko‘chirilgan nusxaga asoslangan. Shu jihatdan yuqorida zikr etilgan qadimiy nusxaga qaraganda bir qancha farqlar mavjud.

“Qisasi Rabg‘uziy” ilk marta Ergash Fozilov rahbarligi va Abdullo Yunusov hamda Hamidullo Dadaboyevlar ishtirokida 1990-1991 yillarda ikki jildda nashr qilindi . Bu nashrga asos qilib, K. Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagen shahrida nashr qilingan faksimile nusxa olingan.

Bizning qo‘limizda asarning yana bir toshbosma nusxasi mavjud bo‘lib, uning boshlanish varaqlari yo‘qolgan. Taxminimizcha, u 1859 yilda Qozon shahrida bosilgan N.I.Ilminskiy nashri nusxasidir. Uning qog‘ozi, yozuv shakli va nashr uslubi shu davrga xosligidan dalolat beradi. Ushbu yodgorlikni tadqiq etish jarayonida uni yangi nashr bilan qiyoslaganimizda, haqiqatan, bir qancha farqlar borligi aniqlandi. Ulardan ba’zilar haqida to‘xtalishni lozim deb topdik.

“Qisasi Rabg‘uziy”da arab va turkiy (o‘zbek) tilida she’rlar bitilgan. Arabcha she’rlarning turkiycha tarjimasi muallif tomonidan amalga oshirilgan. Bu

narsa muallifning har ikki tilni mukammal bilgani va bu tillarda baravar ijod qila olganini ko'rsatadi. Asarda turli hajmda 59 ta she'r bo'lib, ularning qirqtasi turkiycha (o'zbekcha), o'n to'qqiztasi arab tilida. She'rlar asar mazmunini to'ldiradi, muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular g'azal, musallas, murabba', fard singari janrlarning ilk ibtidoiy namunalari bo'lgani uchun ham mazkur shakllardagi she'rlarning janr talablariga to'la-to'kis javob bera olmaydi. Shunday bo'lsa-da, bu she'rlar Rabg'uziy dahosining nafaqt mohir nosir, ayni paytda iste'dodli shoir bo'lganini ham isbotlaydi.

She'rlarning nashr va toshbosmadagi matnlari o'zaro taqqoslanganda bir-biridan keskin farq qiladigan o'rinlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Bunday farqlar she'rlarning hajmi, adabiy janrlarning soni, so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi bilan bog'liq. Ayniqsa, so'zlarning noto'g'ri o'qilishi bilan bog'liq nuqsonlar ba'zan ma'noni mavhumlashtirgan bo'lsa, ba'zan umuman yo'qolishiga sabab bo'lgan.

Taqqoslardan quyidagi farqlar aniqlandi:

1. Asar boshlanmasida Muhammad payg'ambarga bag'ishlangan na't g'azal bo'lib, 6 baytdan iborat. G'azalning birinchi misrasi nashrda "Din shari'at ro'yati oliy qilgan Mustafo" tarzida berilgan. Nashrga tayyorlovchilar "raiyyati" so'zini "ro'yati" shaklida noto'g'ri o'qigani ayon ko'rinib turibdi, shuning uchun ham misraning mazmuni mavhum bo'lib qolgan. Toshbosmada bu misra asliga muvofiq "Din sharia'at raiyyatini oliy qilgan Mustafo" shaklida berilgan.

Shuningdek, 3-baytning birinchi misrasi "Qavmi orin ko'tarmadin ko'kka og'gan Iso ul" ko'rinishida bo'lib, undan "Qavmining orin ko'tarma (balandlik)dan ko'kka og'gan (ko'tarilgan) Iso u" degan ma'no anglashiladi. Misradagi so'zlar tartibidan "ko'tarmadin" degan so'zda qandaydir mavhumlik seziladi. Toshbosmada bu so'z "ko'tarmayin" shaklida berilgan va shunday o'qilsa, misraning ma'nosi asl holiga keladi: "Qavmining orini ko'tara olmasdan ko'kka ko'tarilgan Iso u". Chunki keyingi misrada aynan shu ma'nodagi fikr bilan zidlangan fikr bayon qilingan:

*Qavmi orin ko'tarmayin ko'kka chiqg'on Iso ul,
Ummatiga ul bo'lushubon yerda qolgan Mustafo.*

Baytning yana bir o'rnidagi so'z farqi unchali katta ahamiyatga ega emas: nashrda "ko'kka og'g'an", toshbosmada "ko'kka chiqg'on".

2. Nosiruddun To'qbug'abek ta'rifidagi she'r musallas (uchlik) shakldagi she'rdir. Bu she'r ilk musallas shaklida yozilgan she'rdir. Rabg'uziydan oldin (umuman olganda undan keyin ham) musammatning bu shaklida hech kim ijod etmagan. Musallas shaklida ijod qilish bir muncha qiyinchilik tug'dirgan. Fikr to'liq va izchil bo'lishi qiyin bo'lgan. Rabg'uziy ijodidagi musallas bu shaklning ilk ajoyib namunasi hisoblanadi.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur she'r har bandining 2- misralari o'zaro, 3- misralari o'zaro qofiyalangan bo'lib, bandlarning 1- misralari erkin. Nashrda birinchi misra "ilhoq" so'zi bilan boshlansa, toshbosmada "alchiq" so'zi bilan boshlangan (Ilhoq umul tuzun qiliq - Alchiq umul tuzun qiliq). "Ilhoq" so'zi "qat'iy undash, qistov, biror ishni ijro etishga qattiq zo'rlash" degan ma'no ifodalaydi. "Alchiq"ning ma'nosi esa ma'lum bo'lmadi.

Keyingi bandlarning birida ham xuddi shunga o'xshash farq mavjud. Nashrda:

*Erardi yavloq telim
Tuz so'zlayur so'zni uqo
Ortug' yarog'lig' siyrati.*

Toshbosmada:

*Erdamlari yig'loq telim
O'z so'zlayur so'zni uqo
Ortug' yarog'lig' siyrati.*

Ko'rinadiki, "erardi" – "erdam", "yavloq" – "yig'loq", "tuz" – "o'z" so'zlaridagi farqlar ifodaga o'z ta'sirini ko'rsatgan. "Erdam"ning ma'nosi "odob",

“yavloq”ning ma’nosi “yomon, yaramas”, “tuz”ning ma’nosi “yaxshi, durust” demakdir. Bizningcha, band nashrda asliyatiga yaqin.

Quyidagi bandda ham soʻzning toshbosmada yanglish bosilganini aniqlash qiyin emas. Ya’ni nashrda:

Ezgu qiliq birla yurub

Do ‘st qizg ‘anur dushman baqo

Ortar qamug ‘din hurmati.

Toshbosmada:

Ezgu qiliq birla yurub

Do ‘st qizg ‘anur dushman yoqo

Ortug ‘ qamug ‘din hurmati.

3. “Qisasi Rabg‘uziy”da o‘ttizdan ortiq g‘azal bor. Bu g‘allarning biri Yusuf payg‘ambar qissasida bahorning kelishi, undagi go‘zalliklar haqida. Bu g‘azal turkiy (o‘zbek) adabiyotidagi taxallus qo‘llangan birinchi g‘azal sanaladi. G‘azalning nashr va toshbosmadagi matnida ayrim soʻzlar qo‘llash bilan farqlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, g‘azalning uchinchi bayti nashrda quyidagicha berilgan:

Tong otardi esnayur to ‘rt bo ‘lungdin shamol, ziyo,

Kin tuzar kindik yipor yizlanur yobon yozi.

Toshbosmada esa bu bayt sal boshqacharoq ifodalangan:

Tong otardi to ‘rt soridan esnayur bodi safo

Kek yurar kindik yiportek eslanur yopon yozi.

Bunday o‘zgarish keyingi baytda ham kuzatiladi. Solishtiramiz:

Nashrda:

*Yorligi yepgun – bag‘irdin obug‘i yoshil, qizil,
Orasi butoq, yaburg‘oq, tol chechaklar tub tuzi.*

Toshbosmada:

*Tezliki tekin yag‘irdin uyug‘i yashil, qizil.
Orasi budoq, yaburg‘oq, tul chechaklar tub tuzi.*

Yana bir shunga o‘xshash farq.

Nashrda:

*Tol yig‘ochlar minbarida to‘ti qush majlis tutar
Qumri, bulbul muqri bo‘lub un tuzar tun-kunduzi.*

Toshbosmada:

*Nay shakarlar minbarida to‘ti qush majlis tutar
Qumri, bulbul muqri bo‘lub un tuzar tun-kunduzi.*

Shunday jiddiy farqlarning yana biri g‘azal maqta’sida uchraydi. Nashrga tayyorlovchilar misrani “Huri in ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur” tarzida taklif etishgan. Bu misra toshbosmada “Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur” shaklida ifodalangan.

4. Muallif asarni 15 baytli g‘azal bilan xotimalagan. Ushbu g‘azalning nashr va toshbosma matnlari o‘zaro taqqoslaganda ham bu ikki matnning bir-biridan keskin farq qilishini kuzatdik. Jumladan, nashrga tayyorlovchilar g‘azalning birinchi so‘zidanoq xatoga yo‘l qo‘yishgan: “Ush bitidim” birikmasini “O‘sh bitidim” tarzida berishgan. Toshbosmada bu qism “Ush tugattim” shaklida. Misraning ikkinchi qismi nashrda “ey eranlar er bo‘zi” bo‘lsa, toshbosmada “ey eranlar er yuzi” ko‘rinishini olgan. Ikkinchi baytda bunday farq ancha jiddiy. Nashrda “Uyqu buzdum, o‘zum uzdum, so‘zni tuzdum tun-la man, Erta turdum, xoma urdum, emgandim tun-kunduzi” berilgan bu bayt, toshbosmada “Oy qubordim, o‘zum uzdim so‘zni tuzdim tunla men, Erta turdum, xoma urdum,

emkonim tun-kunduzi” tarzida butunlay chalkash berilgan. Yana shuni ham alohida ta’kidlash joizki, g’azalning so’nggi bayti toshbosmada nashrdagidan butunlay farq qiladi. Lekin bu farq fazilat bo’lmasdan nuqson sifatida baholanadi.

*Kun tug’ardin kun botarg’a tekti ersa so’zlarim,
Onda qo’bti Misr shahri munda Nosir Rabg’uziy.*

Bu bayt nashrda o’zining asliyatiga muvofiq tabdil qilingan, deb o’ylaymiz. Chunki, asar so’ngida, an’anaga muvofiq, adib “Kun chiqishdan kun botargacha so’zlarim yetib borsa, bu so’zlarni eshitganlar miskin Nosir Rabg’uziyni duo qilsalar” deb niyat qiladi. Bu niyat yuqoridagi shaklda emas, balki quyidagi ko’rinishda ifodalangani haqiqatga yaqin:

*Kun tug’ardin kun botarg’a koshki tegsa so’zlarim,
Eshitgandin duo qo’ldum miskin Nosir Rabg’uziy.*

“Qisasi Rabg’uziy” asarining “Qissai Yusuf siddiq alayhissalom” dagi she’r nashrda quyidagicha beriladi:

*YO subh al-vajhi yo zu’ an-nahor-mushtahar,
Anta ruhi vajhuk al-maymanu shams av al-qamar.
Elingiz chin to’linoytek qinayur qirg’u qaroq,
Yuzungiz kundan yoruqroq ko’rkinguz kun yo qamar.
Talat al-axzon va dahran fal-habibu qad jaf,
Abduhu lam yaat bilkufran yavman bal shakar.
La’lin ochsa yinjulardin to’klunur turluk latif,
Ul erinning totig’inda qayda yetsun bol shakar.
Ruhuk er-rayhon nashran qad ya’uju birrajo,
Lafzuk al-mamzuju shaxdan sora al-ahl-val-amr.
Ko’rkunguzni kusayurmen erta goh bir kun bo’lur,
Emgakim yavloq telim bor emgagan oxir emaz.
Kuntu fid-da’va muhiqqan lo bal ant-hokim,*

YO habibi hokazo abd al-hazini qad aqtar.

Bu she'r toshbosmada esa:

YO subh al-vajhi yo zu' an-nahor-mushtahar,

Anta ruhi vajhuk al-maymanu shamsu val-qamar.

Olingiz chin to 'linoytek qinayur qirg'u qaroq,

Yuzungiz kundan yoruqroq ko 'rkinguz kun yo qamar.

Talot al-axzon va dahran fal-habibu qad jafu,

Abduhu lam yaat bilkufran yavman bal shakar.

La'lin ochsa yinjulardin to 'klunur turluk latif,

Ul erinning totig'inda qayda yetsun bol shakar.

Ruhuk er-rayhon nashran qad ya'uju birrajo,

Lafzuk al-mamzuju shaxdan sora al-ahl-val-amr.

Ko 'rkunguzni kusayurmen erta goh bir kun bo 'lur,

Emgakim yavloq telim bor emgagan oxir emaz.

Kuntu fid-da'va muhiqqan lo bal ant-hokim,

YO habibi hokazo abd al-hazini qad aqtar.

Nashrdagi she'rning ikkinchi qatoridagi "shams av qamar" so'zi toshbosmada "shamsu val qamar" tarzida berilgan. Nashrdagi she'rning uchinchi qatoridagi "elingiz" so'zi toshbosmada "olingiz" tarzida berilgan. Nashrdagi she'rning beshinchi qatoridagi "Talat" so'zi toshbosmada "Talot" tarzida beriladi. Yana yigirma ikkinchi qatordagi qatordagi "basar" so'zi toshbosmada "bashar" tarzida beriladi.

"Qisasi Rabg'uziy" asarining "Qissai valodati Muhammad payg'ambar" dagi she'r nashrda quyidagicha beriladi:

Oldi tarkin, berdi ersa haq risolat xil'atin,

Otlanib kezdi tun ichra iki olam mulkatin.

To'rt bulun(g) olti jihatdin sekkiz ujmo' bo'lg'ug'a.

Yetti iqlimda o'garlar kunda beshar navbatin.

Ko'kdagi jumla maloyik kecha kunduz ravzasin,

O'vrulub oy, kun qilurlar kecha-kunduz xidmatin.

Bir bashorat birla yordi oyni ernin tebratib,
So‘zlari chin teb tanuqluq berdi Qur’on ummatin.
Qoba qaysayinda buroqin buldi ersa rozlashib.
Qob qayoshin orturubon qo‘ldi osiy ummatin.
Kusayur erdi jamolin anbiyo mursal qamug‘,
O‘zitek o‘zga yalovoch bulmadi Haq qurbatin.
Bu kun “allahumma salli” tegil eshtib otin,
Yorin anda ichar ersang kavsarining sharbatin.
Tengrimizga chin topug‘soq odamiylar bilgasi,
Tub yalavoch ulug‘i ham sovchilarning tamg‘asi.
Anbiyo, mursal qamug‘ning o‘ngi ham so‘ngi uchun,
Ilgaridin ko‘rmiitek ko‘rdi aning orqasi.
Yuz o‘vurub yorliqidin yondi ersa to‘ng arab,
Til ochib berdi tanuqluq ingani ham bug‘rasi.
Ishlari birla umansa Makka ichra yig‘ilishib,
O‘zi to‘lun oy mengizlik yulduz erdi tegrasi.
To‘ng biliklik och kechurgan qursoqing‘a tosh tikib.
Bulmadi bug‘doy oshini ham yo‘q erdi arpasi.
O‘zi farshda, oti arshda himmati andin adiz,
Yuzi kundan ko‘p yoruqroq alni oyning egmasi.
Qo‘lg‘ali mahshar kuninda kmmatining yozuqi,
Mingani me’roj tuninda erdi ujmoah yo‘rg‘asi.
Rahmatin lil-olamin teb aydi rahmon rahmatin.
Tekmalar qayda bilurlar ham Rasulning izzatin.
O‘gdi, mo zag‘al basar teb o‘z kalomi ichra haq,
Anbiyolar, mursal qamug‘din aning a’lo himmatin.
Uyuqlayurda Mustafoni eltguchiman teguchi,
Sidradin o‘tmish hayron qoldi. Bildi hurmatin.
Keldi kavnaynni kezibon topti issig‘ o‘rnini,
Tonglashib qoldi xaloyiq qodir Olloh qudratin.

Man Muhammad ummatiman teyu yolg'on so'zlama.
Ne Ug'on topug'in qilursen. Ne rasulning sunnatin.
Fag'islu aning amrini tut, top sahoba suhbatin.
Turma forig' kuda sallu xamsankim, ishin bitur.
Ko'rma dunyo emgakin sen qiyomat haybatin.
O'shbu munglug' osiylarg'a ul netak yopushmasun,
Besh namozni o'tayurlar ham buyurg'an sunnatin.
YO ilohiy, Ahmad otlig' Mustafoning hurmati,
Ul bo'lur holda ayirma bizdin imon davlatin.
Ko'rmaduk ko'rkluk jamolin kusagan dunyoda ham,
Ro'zi qil, yo rab ko'raling yorin aning ravzasin.
Kim bu kun jon birla tesa allohumma sallini,
Yorin ujmoj ichra yesun turluk alvon ne'matin.
Barmoqi sandusi birla oy liqosin yorg'uchi.
Kechmadi Chin-Mochin ichra o'zitek chin yorg'uchi.
Ul dumontek ko'p tuman to'g' turg'uzub yuz ming arab,
Kelmishinda bir ovuch tufroq otibon turg'uchi.
Ul qatig'liq ichra toshman yangli dushman ko'nglini.
Bu she'r toshbosmada esa:
Oldi tarkin, berdi ersa haq risolat xil'atin,
Otlanib kirdi tun ichra iki olam mulkatin.
To'rt bulun(g) olti jihatdin sekkiz ujmoj bo'lg'ug'a.
Yetti iqlimda yurutub kunda beshar navbatin.
Ko'kdagi jumla maloyik kecha kunduz ravzasin,
O'vrulub oy, kun qilurlar kecha-kunduz xizmatin.
Bir bashorat birla yordi oyni barmoq tebratib,
So'zlari chin teb tanuqluq berdi Qur'on ummatin.
Qoba qaysayinda buroqin buldi ersa rozlashib.
Ota onosin tilamadi qulladi osiy ummatin.
Ko'rgali bordi jamolin anbiyo mursal qamug',

O'zitek o'zga payg'ambar topmadi Haq qurbatin.
 Bu kun "allahumma salli" tegil eshtib otin,
Tongla ichgil ujmoh ichra kavsarining sharbatin.
 Tengrimizga chin topug'soq odamiylar bilgasi,
 Tub yalavoch ulug'i ham sovchilarning tamg'asi.
 Anbiyo, mursal qamug'ning o'ngi ham so'ngi edi,
 Ilgaridin ko'rmiitek ko'rdi aning orqasi.
 Yuz o'vurub tondi haqdin qo'lladilar bir mo'jiza,
 Til ochib berdi tanuqluq ingani ham bug'rasi.
 Ishlari birla umansa makka ichra yig'ilishib,
 O'zi to'lun oy mengizlik yulduz erdi tegrasi.
 To'ng biliklik och kechurgan qursoqing'a tosh tikib.
 Bulmadi bug'doy oshini ham yemadi to'q arpasi.
 O'zi farshda, izi arshda himmati andin adiz,
 Yuzi kundan ko'p yoruqroq alni oyning egmasi.
 Qo'lg'ali mahshar kuninda kmmatining yozuqi,
 Mingani me'roj tuninda erdi ujmoh yo'rg'asi.
Rahmatan lil-olamin teb aydi rahmon rahmatin.
 Tekmalar qayda bilurlar ham Rasulning izzatin.
 O'gdi, mo zag'al basar teb o'z kalomi ichra haq,
 Anbiyolar, mursal qamug'din aning a'lo himmatin.
 Uyuqlayurda Mustafoni eltguchiman teguchi,
 Sidradin o'tmish hayron qoldi. Bildi hurmatin.
 Keldi kavnaynni kezibon topti issig' o'rnini,
 Tonglashib qoldi xaloyiq qodir Olloh qudratin.
 Man Muhammad ummatiman teyu yolg'on so'zlama.
 Ne Ug'on topug'in qilursen, ne rasulning sunnatin.
 Fag'islu aning amrini tut, top sahoba suhbatin.
 Turma forig' kuda sallu xamsankim, ishin bitur.
 Ko'rma dunyo emgakin sen qiyomat haybatin.

O'shbu munglug' osiylarg'a ul netak yopushmasun,
Besh namozni o'tayurlar ham buyurg'an sunnatin.
YO ilohiy, Ahmad otlig' Mustafoning hurmati,
Ul bo'lur holda ayirma bizdin imon davlatin.
Ko'rmaduk ko'rkluk jamolin kusagan dunyoda ham,
Ro'zi qil, yo rab ko'raling yorin aning ravzasin.
Kim bu kun jon birla tesa allohumma sallini,
Yorin ujmoj ichra yesun turluk alvon ne'matin.
Barmoqi sandusi birla oy liqosin yorg'uchi.
Kechmadi Chin-Mochin ichra o'zitek chin yorg'uchi.
Ul dumontek ko'p tuman to'g' turg'uzub yuz ming arab,
Kelmishinda bir ovuch tufroq otibon turg'uchi.
Ul qatig'liq ichra toshdek dushmanining ko'nglini.

Nashrdagi she'rning "kezdi, o'garlar, xidmatin, ernin, Qob qayoshin
orturubon qo'ldi, yalovoch bulmadi, yorin anda ichar ersang, uchun, yorliqidin
yondi ersa to'ng arab, yo'q erdi arpasi, rahmatin lil- ichra toshman yangli dushman
"kabi so'z va so'z birikmalari o'rniga toshbosmada esa "kirdi, yurutub, xizmatin.
Barmoq, ota onosin tilamadi qulladi, ko'rgali bordi, payg'ambar topmadi, tongla
ichgil ujmoj ichra, tondi haqdin qo'lladilar bir mo'jiza, yemadi to'q arpasi, izi,
rahmatan lil-olamin, ichra toshdek dushmanining" kabi so'z va so'z birikmalar
ishlatiladi

Asarda Ibrohim payg'ambar nomlaridan arabcha she'r berilib, undan
keyin esa uning she'riy o'zbekcha tarjimasi beriladi:

A rabbun yabulu as-a'labani a aynun birasihi
Laqad zalla man balat alayhi sa'alibu
Baritu min az-zolli va ash-shirki kullihi
Va amantu billahi allazi huva g'olibu.

O'zbekcha tarjimasi nashrda quyidagicha:

*Tengrimu bo‘lur boshig‘a tilku siysa bir sog‘in,
Ko‘zlari ko‘rmas qorong‘u ham tili aning og‘in.
Man bulardin kull yiroqmen, qulman Olloh malog‘a,
Qurshanib qulluq qurini berk tutarman yorliqin.
Ammo toshbosmada tarjima quyidagicha:
Ko‘zlari ko‘rmas qorog‘u ham tili oning og‘in,
Tangrimu bo‘lur boshig‘a tulkiy siysa bil yaqin,
Men bulardin bil yiroq qulmen Alloh mavlog‘a,
Qurshonib qulluq qurini berk tutormen yorlig‘in.*

Nashrdagi va toshbosmadagi she‘r tarjimasida bir qancha tafovutlar bor. Avvalo nashrdagi va toshbosmadagi she‘r tarjimasining birinchi qator bilan ikkinchi qatori she‘rning asl holatiga solishtirganda o‘rin almashtirib berilgan. Nashrdagi she‘rning tarjimasida birinchi qatordagi oxirgi so‘z “sog‘in” deb berilgan, toshbosmada esa u “yaqin” deb berilgan. Nashrdagi she‘r tarjimasida uchinchi qator oxirgi so‘z “malog‘a” deb berilgan, toshbosmada esa “mavlog‘a” deb beriladi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida berilgan arabcha va o‘zbekcha she‘rlar muallifning ikki tilda she‘r yozish iqtidori borligiga dalolat qiladi. Asarda g‘azal, ruboiy, qit‘a, qasida kabi janrlarda 550 dan ortiq misra she‘r mavjud. Bu she‘rlar Rabg‘uziyning mohir shoir ekanligidan darak beradi. Shu bilan bu she‘rlar yuksak mahorat bilan bitilganki, ular asar muallifining aruz vaznidan yaxshi xabardorligini ko‘rsatadi. Asarda 18 ta to‘rtlik, ya‘ni murabba’ shakldagi she‘r mavjud. Ulardan 8 tasi o‘zbek tilida bo‘lib qolganlari arab tilida berilgan. Asar nashridagi arabcha to‘rtlik (murabba’) she‘r quyidagicha beriladi:

*Bu ko‘nglim murodga tekinmak tilar,
Telim xalqlar aro o‘kunmak tilar.
Kun, oy sajda qilg‘ay arig‘ yuzga man,
Bu kun otdin inib yukunmak tilar.*

Toshbosmada:

*Ko‘nglim murodga tekma tilar,
Qamug‘ xalq aro o‘kunmak tilar.
Kun, oy sajda qilg‘on orig‘ yuzingga,
Bu kun otdin inib yukunmak tilar.*

Bu to‘rtlik she‘rning nashri bilan toshbosmasida farqlar bor. Nashrning birinchi qatori “Bu ko‘nglim” deb boshlansa, toshbosma esa “Ko‘nglim” deb boshlanadi. Nashrning ikkinchi qatori “Telim xalqlar” deb boshlansa, toshbosma esa “Qamug‘ xalq” deb boshlanadi. Nashrning uchinchi qatorida “Kun, oy sajda qilg‘ay arig‘ yuzga man” deyilsa, toshbosmaning uchinchi qatori “Kun, oy sajda qilg‘on orig‘ yuzingga” tarzida beriladi.

Bu to‘rtlik tekinmak tilar, o‘kunmak tilar, arig‘ yuzga man, yukunmak tilar degan so‘zlar ishtirokida (a-a-b-a) tarzida qofiyalangan.

Nashrdagi yana boshqa to‘rtlikda:

*Qamug‘ yignalar to‘n tikar kizdurur,
Yana o‘zi ko‘rsang yalong‘och qolar.
Chirog‘ma ulasho‘ kuyar o‘rtanur,
Azinlarga ko‘rsang yoruqluq berur.*

Toshbosmada:

*Qamug‘ eknalar bel tikar kiydurur
Yana o‘zi doim yalong‘och qolar.
Chirog‘ ham ulasho‘ kuyar o‘rtanur,
O‘zgalarga ko‘rsang yoruqluq berur.*

Bu toʻrtlikning nashri va toshbosmasida ayrim tafovutlar bor. Nashrning uchinchi qatorida “Chirogʻma” deyilsa, toshbosmaning uchinchi qatori “Chirogʻ ham” tarzida beriladi. Nashrning toʻrtinchi qatori “Azinlarga koʻrsang yoruqluq berur” tarzida berilsa, toshbosma esa “Oʻzgalarga koʻrsang yoruqluq berur” deb beriladi. Nashrdagi yana boshqa toʻrtlikda:

Koʻz koʻrgani jamol ul,

Sevmak ani halol ul.

Andogʻ jamol koʻrubon,

Kim sevmasa vabol ul.

Toshbosmada:

Koʻz koʻrgoli jamol ul,

Sevmak ani halol ul.

Mundogʻ jamol koʻrubon

Kim sevmasa va bol ul.

Bu toʻrtlikning nashri bilan toshbosmasida farq bor. Nashrning uchinchi qatori “Andogʻ jamol” deyilsa, toshbosma esa “Mundogʻ jamol” tarzida beriladi da ham farq bor. Bu toʻrtlik jamol ul, halol ul, jamol koʻrubon, vabol ul soʻzlar ishtirokida (a-a-b-a) tarzida qofiyalangan.

Asarda oltilik shaklidagi sheʼrlar mavjud. Oʻzbek adabiyoti sheʼriyatida oltilik shakldagi sheʼrlarni musaddas shakldagi sheʼrlar deyiladi. Asar tarkibidagi Odam safiy alayhis-salom qissasida bu shaklni yaqqol koʻrish mumkin.

Nashrda:

Sodiq ul-vaʼd atanibon vaʼdasin qildi vafo,

Tepti yerga ikki azoqin, topti yerda bir quzuq,

Boʻldi zamzamning suvini, boʻldi illatgʻa shifo.

Kaʼbaning toshin tashib qurbon qilgʻan ul Zabih,

*Tegrasida tog' tanuqlar Marva erdi ham Safo.
Xalq aro ortuq bag'irsoq erdi mavlog'a muti'.*

Toshbosmada:

*Sodiq ul-va'd atanibon va'dasin qildi vafo,
Tebti bir ikki ayog'in, tobti yerda bir qazug'.
Bo'ldi zamzamning suvini, bo'ldi olamg'a shifo.
Ka'baning toshin teshib, farmon qilibon ul Zabih.
Tegrasida tog', tupug'da Marva erdi ham Safo.
Xalq aro ortuq beg'ayri soq erdi mavlog'a muti'.*

Bu oltilik she'ning nashri bilan toshbosmasida farqlar bor. Nashrdagi tepti, azoqin, topti, quzuq, illatg'a, tanuqlar so'zlari o'rniga toshbosmada tebti, ayog'in, tobti, qazug', olamg'a, teshib, farmon, tupug'da, beg'ayri so'zlari ishlatiladi.

Asarda o'n qatorlik she'r berilgan bo'lib, uning nashr nusxasi quyidagicha:

*Dovud o'g'li ul Sulaymon Tengrimizning sovchisi,
Yel ulog'lig' shoh ediyu ham uchar qush elchisi.
Odamiy, uchqan, yugurgan. Dev, pari ham yel, bulut,
Og'ulug' bo'lsun ozig'lig' barcha aning ishchisi.
Quzi to'rt yuz qangli erdi kunda qushlug' oshig'a.
Borg'usida kur arslon, bo'ri, qoplon qo'ychisi.
Tupuchoq otning urug'i qoldi andin dunyoda,
Tilda hujjat. Tanda xidmat. Qo'lda mulkat qamchisi.
O'zi "ni'mal abdu" atandi ham yalavoch ham malik,
Yo'ldin ozg'anlarga erdi o'zi ujmoq yo'lchisi.*

Toshbosmada:

*Dovud o'g'li Sulaymon Tengrimizning sovchisi,
Yel ulog'lig' podshoh ham uchar qush elchisi.
Odamiy, uchqan, yugurgan, dev, pari ham yel, bo'lub,
Og'ulug' bo'lsun ozig'lig' barcha aning ishchisi.
Bilqis otlig' xotin erdi bir viloyat xoni ul,
Otin eshitib keldi oning bo'ldi oxir ishchisi.
Tuzi to'rt yuz qankli erdi kunda shuvlon oshig'a.
Tegrasida Borg'usida kur arslon, bo'ri, qoplon qo'ychisi.
Tupuchoq otning urug'i qoldi andin dunyoda,
Tilda hujjat, tanda xidmat, qo'lda mulkat qamchisi.
O'zi "ni'mal abdu" atandi ham yalavoch ham malik,
Yo'ldin ozg'anlarga erdi o'zi ujmoq yo'lchisi.*

Asarda o'n to'rt qatordan iborat bo'lgan she'r berilgan. U nashrda quyidagicha:

*Aql anub kelgil, eshit, Solih yalavoch qissasin,
Bulguluk boshdin oyoqqa aytayin men jumlasin.
Haq risolat berdi ersa tuz tegurdi qavmig'a,
Yuridi tun, kunduzin oldi Samudning zumrasin.
Qildi imon da'vatini, qo'ldilar bir mo'jiza,
Qo'ldi haqdin, chiqdi ingan yordi tog'ning sahrosin.
Bo'ta tug'di barcha tuzun ani tingla ko'rdilar,
Kun keziklab suv ulashdi ichti kendu hissasin.
Tondilar haqdin qamug'i, qildilar ko'p ma'siyat,
Uqmadin Solih so'zin ham ushbu ingan qissasin.
Keldi yugurub ikki bo'zchi bir azoqin kestilar,
Bo'tasi ingrab qayitti ostilar uch sahbasin.
Uch kun ichra bo'ldilar sarig', qizil ham qap-qaro,
Qudrati birla ug'on qodir yemurdi barchasin.*

Toshbosmada:

*Kel eshit bilkim nedur Solih payg'ambar qissasin,
Bilkuluk boshtin oyoqg'a aytayinmu jumlasin.
Haq risolat berdi ersa dedi barcha qavmig'a,
Yuridi tun, kunduzin boshlab Samudning zumrasin.
Qildi imon da'vatini, qo'ldilar bir mo'jiza,
Qo'ldi haqdin, chiqdi ingan yordi tog'ning sahrosin.
Bo'ta tug'di ul tevadin barcha qavmi ko'rdilar,
Navbat ila suv ulashdi ichti kundu hissasin.
Tondilar haqdin qamug'i, ko'p ma'siya qildilar,
Butmadilar Solih so'ziga qatl qildi noqasin.
Keldi yugurub ikki bo'zchi bir ayog'in kestilar,
Bo'tasi ingrab qaytti tobtu tog'da hujrasin.
Uch kun ichra bo'ldilar sarig', qizil ham qob-qaro,
Qudrati birla ug'on kuydirdi o'tqa barchasin.*

She'ning nashrdagi aql anub, yalavoch, bulguluk, tuz tegurdi, oldi, tuzun ani tingla, kun keziklab, qildilar ko'p ma'siyat, uqmadin, so'zin, ushbu ingan qissasin, azoqin, ostilar uch sahbasin, qodir yemurdi barchasin kabi so'z va so'z birikmalari o'rnida toshbosmada kel eshit bilkim nedur, payg'ambar, bilkuluk, dedi barcha, boshlab, ul tevadi, navbat ila, qildilar, butmadilar, so'ziga qatl qildi noqasin, ayog'in, tobtu tog'da hujrasin, kuydirdi o'tqa barchasin kabi so'z va birikmalar ishlatiladi.

2. “Qisasi Rabg‘uziy” nusxalaridagi farq va tafovutlar

Nashr va toshbosma o‘zaro solishtirilganda ayrim nasriy matnlarda ham keskin farqlar ko‘zga tashlandi. Ularning ayrimlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Nashrda matn “Ilk qat yer birining oti Ramko turur. Aqim otlig‘ yel uza yetmish ming burunduq birla. Tekma bir burunduqi yetmish ming farishta ilkinda” (Birinchi kitob, 13-bet) shaklida bo‘lsa, shu matnni toshbosmada “Avval qat yerni yaratdi. Oti Rakmo turur. Aqiyim otlig‘ yel uzo turur. Yetmish ming burunduq bila yetmish ming farishta ilkinda tutor” tarzida o‘qiymiz. Nashrda: yaratdi, turur, tutor kabi so‘zlarning tushib qolgani va “Ilk, Ramko” so‘zlari, toshbosmadagi “Avval, Rakmo” so‘zlari bilan almashganini ko‘ramiz. Yana boshqa matnga e‘tiboringizni qaratamiz. Nashrdagi matn: “Yana aydilar: Ey Muso, Tengri birla so‘zlashurman, teyursan. Bizma yalavoch o‘g‘lonlarimiz senga qarindosh-urug‘ bo‘lurmiz. Biz nima olib borsang, Mavlo taolo kalomin eshitsamiz bo‘lg‘aymu”, tedilar. Muso duo qildi, yorlig‘ bo‘ldi: Ayg‘il, ulug‘larin saning birla izsunlar, kalom eshitsunlar. Muso Solih abushqani uzdurdi. Oltmish abushqa chiqti, yetmishga yetmadi. Yorlig‘ bo‘ldi. Tekma bir sibtdin bir yigit chiqardilar. O‘n ikki yigit bo‘ldi, yetmish ikki bo‘ldilar. Muso aydi: ikagu yoning, azinlar maning birla borsunlar. Tekma biri unamadi, Yusha’ ibn Nun va Kellu ibn Bufna ikagu yondilar. Aydilar: bizga bu borg‘anlar savobi bulg‘aymu? Bulg‘ay.

Tushib qolgan yoki almashgan so‘zlar.

“Tedilar” (Ikkinchi kitob, 5-bet) shaklida bo‘lsa, shu matn toshbosmada: “Yana aydilar: Ey Muso Mavlo taolo birla so‘zlashurmen teyursin, bizlarni ham olib borsang chun bizlar ham payg‘ambar o‘g‘lonlarimiz. Muso payg‘ambar duo qildi: O‘zing sen bilursen. Ne ayturlar. Xitob qildi: Ey Muso ularg‘a ayg‘il, ulug‘larin sening birla yuborsinlar. Kalomunin eshutsunlar. Muso alayhis-salom yetmish solih abushqani uzdurdi. Oltmish kishi chiqdi. Yetmishga yetmadi. Muso payhambar aydi: sabtdin bir yigit taqi chiqsun. O‘n ikki yigit bo‘ldi. Yetmish ikki bo‘ldilar. Muso alayhis-salom aydi: ikki kishi qoyting, o‘zgalar yursun tedi. Yushi’ ibn Nun, Kulub ibn Barqiyo aydilar: bizlar qoytsaq ularning savobini bulg‘oybiz?

Muso alayhis-salom aydi: bo'lursiz" tarzida keltiriladi. Nashrdagi: Tengri, yalovoch, bizma, biznima, izsunlar, ikagu, yoning, azinlar kabi so'zlar, toshbosmadagi: Mavlo taolo, payg'ambar, bizlar ham, bizlar, yuborsinlar, ikki kishi, qoyting, o'zgalar so'zlari bilan o'rin almashgan. Nashr va toshbosma matnlari qiyoslanganda, ancha farqlar ko'zga tashlanadi.

Matnda: Val-qavlu fis-samovoti val-arzi.

Xabarda andog' kelur, izi azza va jalla qamug'da ashnu bir gavhar yaratti. Ul gavhar yaratdi, ul gavharga haybat nazari qildi ersa ul gavhar erudi. Suv bo'ldi ersa anda kezin yelni yaratdi. Suv uza tushti ersa qum urdi ko'puklandi. Ul ko'pukdin tutun og'di, ul tutundin ko'kni yaratdi. Yavma ta'ti as-sama u biduxanin mubinin. Ul suv mavlo ta'oloning haybatidin qaynab kuyuklandi. Ul ko'pikdin Ka'ba o'rnuncha yer yaratti. Anda kezin ko'kni yaratg'ali tegdi. Summaistava ila as-samai fa savaxunna sab'a samavatin. Ko'kni yaratmishda kezin ul yaratilg'an yerni mashriqdin mag'ribg'a tegi yozib kungu quyruqladi. Va al-arza ba'da zalika dahaha. Bu yerlar va ko'klar bir qat erdi qudrati birla ko'kni yerdin ayirdi, tekma birlari yettishar qat bo'ldi.

Toshbosmada: Alqavlu fi xalqis-samovat.

Xabarda andog' kilur izi azza vajalla qamug'din oshinu bir kavhar yaratdi. Haybat birla avval gavharga nazar qildi. Kavhar iyrdi suv bo'ldi. Andin kiyin yil yaratti. Suv uvzo iysondurdi. Suv ko'puklandi. Avval ko'pukdin tutun chiqdi. Avval tutundin ko'k yaratti. (Qavluhu ta'ala "Yavma ta'ti as-samou biduxanin mubin"). Andin kiyin avval ko'pikdin ka'ba o'rnicha yer yaratti. Andin ko'kni yaratg'oli tikdi. (Qavluhu ta'ala "Summa istava ila as-samai va hiya duxonin"). Ko'kni yarotmishdin kiyin avval yarotilg'on yerni mashriqdin mag'ribg'a tigr yozdi. (Qavluhu ta'ala "Va al-arza ba'da zalika dahaha"). Ko'k mo yer mo bir qat yerd. Qudrati birla ko'kni yerni yordi. Yetti qat qildi.

Matnda: Sifati as-samovoti.

Ilk qat ko'k yashil zumuraddin turur, oti Rafiq turur. Farishtalar o'z suratlig' ulug'larining oti Ismoil otlig'. Ikkinchi qat ko'k kumushdin turur, oti Ruq'a turur. Farishtalari burgut suratlig', ulug'larining oti Raqboil turur. Uchinchi qat ko'k

yoqutdin turur, oti Qaydam turur. Farishtalari uy suratligʻ, ulugʻlarining oti Koʻkboil turur. Toʻrtinchi qat urung yinjudin turur, oti Moʻun turur. Farishtalari ot suratligʻ turur. Ulugʻlarining oti Nubyoyil turur. Beshinchi qat koʻk oltindin turur oti Ratqo, farishtalari hur suratligʻ, ulugʻlarining oti Siftboil turur. Oltinchi qat koʻk, sarigʻ yoqutdin turur oti Zaxo turur. Farishtalari vildon suratligʻ. Ulugʻlarining oti Ragʻboil turur. Yettinchi qat koʻk nurdin turur, oti Aribo turur. Farishtalari odamiy suratligʻ, ulugʻlarining oti Nurboil turur.

Toshbosmada: Sifati samavot.

Avval qat koʻkni yoshil zubirjaddin yaratti. Oti Ruqio turur. Farishtalari odamiy suratligʻ. Ikkinchi qat koʻkni yanjudin yaratti. Farishtalari ot suratligʻ. Uchunchi qat koʻkni qizil yoqutdin yaratti. Farishtalari boʻri suvratligʻ. Toʻrtinchi qat koʻkni kamushdin yaratti. Farishtalari burgut suratligʻ. Beshinchi qat koʻkni qizil oltundin yaratti. Farishtalari xur suratligʻ. Oltinchi qat koʻkni sorigʻ yoqutdin yaratti. Farishtalari vildon suratligʻ. Yettinchi qat koʻkni nurdin yaratti. Farishtalari odam suratligʻ.

Matnda: Qissai Qobil va Hobil.

Vatlu alayhim nabaa ibnay Aadama iz qarraba qurbanan fa tuqubbila min ahadihima, yaʼni izi yorliqar: ”ey Muhammad ularning uza Odamning ikki oʻgʻlonlarining soʻzini ul oʻgʻurdakim qurbon qildilar.

Toshbosmada: Qissai Hobil va Qobil.

Qavluhu taʼolo Vatlu alayhim nabaa ibnay Aadama iz qarraba qurbanan fa tuqubbila min ahadihima, izi azza va jalla yorliqar: ”ey Muhammad oʻqigʻil ularning uza Odamning ikki oʻgʻlonlarining soʻzini kim ul oʻgʻurdakim qurbon qildilar. Birining qurboni qabul boʻldi. Birining qabul boʻlmadi. Aydi men seni ulturkaymen. Ul qissa andogʻ tururkim. Odam eng soʻngi tugʻgʻon ugʻulgʻa Abdul Mugʻis ot qoʻydi. Qizigʻa ammatul Mugʻisa ot qoʻydi. Bu igiz avval vaqtda tugʻdikim Odamning oʻgʻlonlari qirq ming boʻlmish erdilar. Qachon Qobil tugʻdi ersa aning birla bir qiz tugʻdi. Bisor koʻrgulik Iqlima otligʻ. Ikki yildan kiyin Hobil tugʻdi. Aning birla tugʻgʻon qiz koʻrksiz Labud otligʻ. Odam oʻz shariatinch a Qobil birla tugʻgʻon qizni Hobilgʻa berayin, Hobil birla tugʻgʻonni Qobilgʻa

berayin tedi. Ersa Qobil unomodi. Aydi mening birla tug‘g‘onni men olurmen. Odam aydi senga ravo ermos. Qobil aydi bintong qarindosh bo‘lsa, ul ham mundog‘ qarindosh bo‘lur tedi. So‘z tilashdilar. Odam aydi qurbon qiling kimung qurboni qabul bo‘lsa, bu Iqlimoni ul olsun. Hobil bordi bir ulug‘ qo‘y keltirdi. Qobil bordi pora cho‘bluk bug‘doy kelturdi. Quron qilur yerda qo‘ydilar. O‘t keldi. Hobilning qurbonini kuydurdi. Aning uchun kim iziga yoviq bo‘lsa, qurboni qabul bo‘lar. Otasi Odam ham Hobilni sevor edi. Bu xoladda Iblis kelib Qobilg‘a vasvasa bera boshladi. Aydi bilur musen Hobil qurboni ne uchun qabul bo‘ldi. Qobil aydi bilmasmen.

Shuningdek, toshbosmada mavjud bo‘lgan ayrim parchalar joriy nashrda yo‘q. Ikkita qissa tushib qolganligi ma‘lum bo‘ldi. Nashr qilingan nusxada Ayyub payg‘ambar va Shuayb payg‘ambar qissalari mavjud emas. Bu haqda nashrning 1-kitobi 167-betida quyidagicha izoh beriladi: “Qo‘lyozmaning shu yerida “Yusuf va Zulayho” dostoni uzilib, keyingi sahifadan boshqa rivoyatlar boshlanadi. U rivoyatning boshlanish qismi ham qo‘lyozmada yo‘q”.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining nashr va toshbosmalarini bir-biri bilan taqqoslash asar mutaolasi va uni o‘rganish uchun foydali ma‘lumotlar beradi. Bu ikki nusxani mutoala qilish jarayonida keltirilgan misollarga o‘xshash holatlarning juda ko‘p ekanligi asarning birlamchi va nashr variantlarini qiyoslash zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Biz ikki nusxani qiyoslash orqali “Qisasi Rabg‘uziy”ning asl holatini tiklash va uni yangi nashr qilish bugungi kun vazifalaridan hisoblanadi.

III bob.Bo‘yicha xulosa.

1.Mavjud ikki nusxa o‘zaro taqqoslanganda jiddiy farq va tafovutlar aniqlandi. Bunday farq va tafovutlar, avvalo, asarning hajmi, qissalarning tarkibi va janriy tuzilmasiga daxldor. Nashrda mavjud bo‘lmagan ayrim qissalarning toshbosmada, shuningdek, aksincha, toshbosmada mavjud bo‘lmagan ayrim parchalarning nashrda mavjud ekani kuzatildi. Shu tariqa o‘nga yaqin qissalar yangidan aniqlandi va ularning matni joriy imloga tabdil qilindi. Bu narsa “Qisasi Rabg‘uziy”ning hozirgi o‘zbek kitobxoni va mutaxassis-adabiyotshunoslar uchun

mukammal emasligini ko'rsatadi. Demak, har qanday holatda ham hozirgi kunda biz Rabg'uziy asarini butun bo'y-basti bilan tasavvur qila olmaymiz.

2.Yurtimizda asar nashrini amalga oshirgan mutaxassislar bu ishni asarning faqat bitta nusxasiga tayanib amalga oshirgani uchun ham bir qator savollarga javob topilmay qolmoqda. Noshirlar matnni faqat joriy imloga tabdil qilgan, uni boshqa nusxalar bilan qiyoslamagan. Buning natijasida "Yusuf payg'ambar alayhis-salomning Zulayxog'a qovushqan so'zlari" qismi so'ngida "Qo'lyozmaning shu yerida "Yusuf va Zulayxo" dostoni uzilib, keyingi sahifadan boshqa rivoyat boshlanadi. U rivoyatning boshlanish qismi ham qo'lyozmada yo'q" degan yengil-yelpi izoh paydo bo'lgan. Vaholanki, bu qissa toshbosma nusxada to'lq saqlangan.

3.Nashrning garchi har ikki kitobida "Lug'at va izohlar" degan ilova berilgan bo'lsa-da, bu ilovalar tom ma'noda mukammal emas. unda izohlangan so'z va iboralar "Qisasi Rabg'uziy" matnini tushunish uchun yetarli manba bo'la olmaydi. Buning ustiga har ikki ilova deyarli bir xil. Shunday ekan uni kitobning faqat bir qismida bersa ham bo'lar edi. Ilovani o'zbek lug'atshunosligining keyingi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari asosida qayta ko'rib chiqish ehtiyoji mavjud.

4.Nashrning "Kishi nomlari" nomli ilovasi to'g'risida ham shunday fikr bildirish mumkin. Ilovada kishi nomlari butun asarni to'la qamrab olmagan yoki izoh zarur o'rinda berilmagan. Masalan, "Oysaning qissasi" qismida uchraydigan Oysa nomiga ilmiy tamoyillarga amal qilinmagan holatda "Osiya – Fir'avnning xotini. "Qisasi Rabg'uziy"da Oysa shaklida keltirilgan", deb izoh berilgan. Lug'at tartibida berilgan ilovadagi bu izoh foydalanuvchiga noqulaylik tug'diradi. Foydalanuvchi Oysa nomini alifbo tartibida qidirib, topa olmaydi. Aslida izoh quyidagi ko'rinishda bo'lishi maqsadga muvofiqdir: "Oysa – Fir'avnning xotini. Aslida Osiya".

5.Nashrda joy nomlari izohi "Lug'at va izohlar" ilovasi tarkibida berilgan. Bunday nomlar hududiy jihatdan keng qamrovli bo'lgani uchun alohida izohlanishi shart edi.

6.Nashrda kishi, joy va boshqa nomlarning miqdoriy ko‘rsatkichi berilmagan. Matn tahriri nuqtai nazaridan bunday ko‘rsatkichning bo‘lishi zarur.

7.Nashrning ayrim o‘rinlarida she’riy parchalarning o‘z janriy shakllarida berilmagani o‘quvchi tasavvurini chalg‘itadi. Jumladan, “Qissai Ilyos yalavoch alayhis-salom”, “Qissai Jirjis yalavoch alayhis-salom”, “Qissai valodati Muhammad rasulullohi sallallohu alayhi va sallam”, “Rasul alayhis-salom vafoti so‘zlari” qissalari tarkibidagi g‘azallar shu janrning talablariga muvofiq baytlari alohida-alohida sahifalanmagan.

UMUMIY XULOSA

1. Nosiruddin Rabgʻuziy qalamiga mansub “Qisasi Rabgʻuziy”ning “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan chop etilgan 2 kitobdan iborat nashri bir qator nuqson va kamchiliklarga ega boʻlib, bugungi kunda uni mavjud boshqa nusxalar yordamida qiyoslash ehtiyoji mavjud. Demak, oʻzbek kitobxonining bu asar hajmi va tarkibi togʻrisidagi maʼlumoti mukammal emas.

2. “Qisasi Rabgʻuziy”ning nasriy asar ekani xususiyatidan kelib chiqib Rabgʻuziy ijodi shu vaqtga qadar faqat nasriy mezonlar asosida oʻrganilgan. Uning sheʼriy iqtidori va poetik mahorati tadqiqotlarda doimo ikkinchi planda oʻrganib kelingan. Rabgʻuziy ijodini shoirlik va sheʼriyat mezonlari asosida atroflicha oʻrganish vaqti allaqachon yetib kelgan.

3. XIX asr ikkinchi choragi va XX asr boshlarida “Qisasi Rabgʻuziy”ning toshbosma usulda bir necha marta nashr qilingani manbalarda qayta-qayta qayd etilgan. Ularni izlab topish, qiyoslash va asarning mukammal ilmiy-tekstologik variantini yaratish lozim.

4. “Qisasi Rabgʻuziy” asarini yangidan nashr qilish zarur. Zero, bu ham davr, ham oʻzbek adabiyotshunoslik ilm-fanining asarga boʻlgan ehtiyoji va zaruratidir.

5. “Qisasi Rabgʻuziy” asari shu vaqtga qadar faqat diniy mazmundagi asar sifatida talqin etib kelingan. Aslida qissa va hikoyatlar, hikmat va latifalar zamiriga muallif tomonidan mohirlik bilan singdirib yuborilgan oʻnlab dunyoviy mazmundagi masalalar bahsi bu asarning Sharq adabiyotidagi “Kalila va Dimna”, “Guliston”, “Boʻston” singari didaktik asarlar qatorida turadigan badiiy asar ekanining yorqin dalilidir.

6. Asarning mavzular koʻlami badiiy adabiyot aspektida hech qachon tadqiq qilinmagan. Faqat diniy masalalar yoritilgan asar sifatida eʼtirof etilgan.

7. “Qisasi Rabgʻuziy” oʻzbek (turkiy) adabiyotga xos oʻnlab janrdagi asarlarning birinchi namunalari oʻzida mujassam etgani bilan alohida eʼtiborga sazovordir. Unda qissa, hikoyat, rivoyat, hikmat, latifa singari nasriy; gʻazal, qitʼa, murabbaʼ singari sheʼriy janrlarning dastlabki namunalari mavjud.

8.Asardagi ayrim janrlar o‘zining keyingi taraqqiyoti davomida butunlay o‘zgarib ketgani kuzatiladi. Jumladan, Rabg‘uziy tomonidan “latifa” sarlavhasi ostida berilgan qismlarda hozirgidek kulgi emas, aksincha kichik hajmdagi hikmatli gap (maqol, aforizm) berilgan.

9.Asarda 600 misraga yaqin she’riy asar mavjud bo‘lib, bu Rabg‘uziyniing yuksak shoirlik salohiyatidan dalolatdir.

10.Rabg‘uziy o‘zbek (turkiy) adabiyotda ilk bor taxallus qo‘llagan ijodkor hisoblanadi.

11.Rabg‘uziy nafaqat mohir qissaxon yozuvchi, ayni paytda o‘zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo‘lgan dastlabki nasriy asar muallifi va ayrim she’riy janrlarning ilk boshlovchisi hamdir.

12.Mavjud ikki nusxa o‘zaro taqqoslanganda jiddiy farq va tafovutlar aniqlandi. Bunday farq va tafovutlar, avvalo, asarning hajmi, qissalarning tarkibi va janriy tuzilmasiga daxldor. Nashrda mavjud bo‘lmagan ayrim qissalarning toshbosmada, shuningdek, aksincha, toshbosmada mavjud bo‘lmagan ayrim parchalarning nashrda mavjud ekani kuzatildi. Shu tariqa o‘nga yaqin qissalar yangidan aniqlandi va ularning matni joriy imloga tabdil qilindi. Bu narsa “Qisasi Rabg‘uziy”ning hozirgi o‘zbek kitobxoni va mutaxassis-adabiyotshunoslar uchun mukammal emasligini ko‘rsatadi. Demak, har qanday holatda ham hozirgi kunda biz Rabg‘uziy asarini butun bo‘y-basti bilan tasavvur qila olmaymiz.

13.Yurtimizda asar nashrini amalga oshirgan mutaxassislar bu ishni asarning faqat bitta nusxasiga tayanib amalga oshirgani uchun ham bir qator savollarga javob topilmay qolmoqda. Noshirlar matnni faqat joriy imloga tabdil qilgan, uni boshqa nusxalar bilan qiyoslamagan. Buning natijasida “Yusuf payg‘ambar alayhis-salomning Zulayxog‘a qovushqan so‘zlari” qismi so‘ngida “Qo‘lyozmaning shu yerida “Yusuf va Zulayxo” dostoni uzilib, keyingi sahifadan boshqa rivoyat boshlanadi. U rivoyatning boshlanish qismi ham qo‘lyozmada yo‘q” degan yengil-yelpi izoh paydo bo‘lgan. Vaholanki, bu qissa toshbosma nusxada to‘lq saqlangan.

14.Nashrning garchi har ikki kitobida “Lug‘at va izohlar” degan ilova berilgan bo‘lsa-da, bu ilovalar tom ma’noda mukammal emas. unda izohlangan so‘z va iboralar “Qisasi Rabg‘uziy” matnini tushunish uchun yetarli manba bo‘la olmaydi. Buning ustiga har ikki ilova deyarli bir xil. Shunday ekan uni kitobning faqat bir qismida bersa ham bo‘lar edi. Ilovani o‘zbek lug‘atshunosligining keyingi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlari asosida qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji mavjud.

15.Nashrning “Kishi nomlari” nomli ilovasi to‘g‘risida ham shunday fikr bildirish mumkin. Ilovada kishi nomlari butun asarni to‘la qamrab olmagan yoki izoh zarur o‘rinda berilmagan. Masalan, “Oysaning qissasi” qismida uchraydigan Oysa nomiga ilmiy tamoyillarga amal qilinmagan holatda “Osiya – Fir‘avnning xotini. “Qisasi Rabg‘uziy”da Oysa shaklida keltirilgan”, deb izoh berilgan. Lug‘at tartibida berilgan ilovadagi bu izoh foydalanuvchiga noqulaylik tug‘diradi. Foydalanuvchi Oysa nomini alifbo tartibida qidirib, topa olmaydi. Aslida izoh quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir: “Oysa – Fir‘avnning xotini. Aslida Osiya”.

16.Nashrda joy nomlari izohi “Lug‘at va izohlar” ilovasi tarkibida berilgan. Bunday nomlar hududiy jihatdan keng qamrovli bo‘lgani uchun alohida izohlanishi shart edi.

17.Nashrda kishi, joy va boshqa nomlarning miqdoriy ko‘rsatkichi berilmagan. Matn tahriri nuqtai nazaridan bunday ko‘rsatkichning bo‘lishi zarur.

18.Nashrning ayrim o‘rinlarida she’riy parchalarning o‘z janriy shakllarida berilmagani o‘quvchi tasavvurini chalg‘itadi. Jumladan, “Qissai Ilyos yalavoch alayhis-salom”, “Qissai Jirjis yalavoch alayhis-salom”, “Qissai valodati Muhammad rasulullohi sallallohu alayhi va sallam”, “Rasul alayhis-salom vafoti so‘zlari” qissalari tarkibidagi g‘azallar shu janrning talablariga muvofiq baytlari alohida-alohida sahifalanmagan.

ILOVALAR

1-ilova

Qissalar nomlanishidagi farqlar

№	Nashrda	Toshbosmada
1	“Qissai Odam safiy alayhis-salom” (Birinchi kitob, 15-bet)	“Qissai Odam alayhis-salom” (10-bet)
2	“Qissai Qobil va Hobil” (1-kitob, 29-bet)	“Qissai Hobil Qobil” (29-bet)
3	“Qissai Shis alayhis-salom” (1-kitob, 33-bet)	“Qissai Shis nabi alayhis-salom” (33-bet)
4	“Qissai Idris alayhis-salom bu turur” (1-kitob, 35-bet)	“Qissai Idris alayhis-salom” (37-bet)
5	“Qissai Idris alayhis-salom” oxirida “Horut va Morut” farishtalar “Uzzo va Uzoyo” deb atalib bayon qilinadi.	“Qissai Horut va Morut” (40-bet)
6	“Qissai Ibrohim alayhis-salom maa Namrud alayhil-la’na” (1-kitob, 59-bet)	“Qissai Ibrohim alayhis-salom” (73-bet)
7	“Qissai Ibrohim alayhis-salom maa zul-arsh al-malik” (1-kitob, 70-bet)	“Qissai Ibrohim alayhis-salom maa zul-arsh” (88-bet)
8	“Qissai Ismoil alayhis-salom” (1-kitob, 73-bet)	“Qissai Ibrohim alayhis-salom” (92-bet)
9	“Qissai vafoti Ibrohim va Sora salavatullohi alayhim” (1-kitob, 85-bet)	“Qissai vafoti Ibrohim va Sora salavatulloh” (108)
10	“Yusuf payg’ambar alayhis-salom Zulayhog’a qovushqan so‘zlari” (1-kitob, 163-bet)	“Yusuf alayhis-salom Zulayxoni olg’oni” (203-bet)
11	“Oysaning qissai” (1-kitob, 171-bet)	“Qissai Osiyo” (251-bet)
12	“Muso birla Xizrning rif’at darajasi bayoni” (2-kitob, 20-bet)	“Qissai Xizr va Muso alayhumos-salom” (286-bet)
13	“Qissai As’hob ul-Qahf” (2-kitob, 96-bet)	“Qissai As’hobul-Kahf ma’a Daqqiyunus” (437-bet)
14	“Rasul ishorati birla oy yorilg’an so‘zlari” (2-kitob, 145-bet)	“Qissai shaqqul-qamar” (509-bet)

“Qissasi Rabg‘uziy” nusxalari hajmidagi farqlar

№	Nashrda	Toshbosmada
1	Mavjud emas	“Qissai Ayub alayhis-salom maa Bohil” (207-bet)
2	Mavjud emas	“Qissai Shu‘ayb alayhis-salom” (226-bet)
3	Mavjud emas	“Qissai Muso alayhis-salom” (228-bet)
4	Mavjud emas	“Qissai vafoti Sulaymon alayhis-salom” (345-bet)
5	Mavjud emas	“Qissai Armiyo alayhis-salom” (390-bet)
6	Mavjud emas	“Qissai Sham’un va Yahyo va Fulyas” (459-bet)
7	Mavjud emas	“Qissai Bihrul-muattalah va qasru-mashiyd” (441-bet)
8	Mavjud emas	“Qissai qavmu Tubba” (417-bet)
9	Mavjud emas	“Qissai ahli xayru von” (419-bet)
10	Mavjud emas	“Qissai baxti nasr” (421-bet)
11	Mavjud emas	“Qissai ahli sabo” (423- bet)
12	Mavjud emas	“Qissai As’hobul-uxdud” (421-bet)
13	“Badr sanchishining qissasi” (2-kitob, 165-bet)	Mavjud emas
14	“Uhud sanchishining qissasi” (2-kitob, 168-bet)	Mavjud emas
15	“Qissasi shahodati Hamza raziyallohu anhu” (2-kitob, 171-bet)	Mavjud emas
16	“Qissai Badr as-sug‘ro” (2-kitob, 173-bet)	Mavjud emas
17	“Qissai omal-hudabiya va fathi Makka” (2-kitob, 173-bet)	Mavjud emas
18	“Qissasi fathi Xaybar” (2-kitob, 176-bet)	Mavjud emas
19	“Qissasi ijloi bani kasir” (2-kitob, 177-bet)	Mavjud emas
20	“Qissasi Havozin” (2-kitob, 186-bet)	Mavjud emas
21	“Tabuk harbining qissasi” (2-kitob, 186-bet)	Mavjud emas

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
3. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
5. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 80 б.
6. Қуръони карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент, 1992.

II. Matn va adabiy manbalar:

7. Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. – Тошкент, 1959.
8. Навоий А. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 2011. 8 - жилд. – Б.539-604.
9. Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 240 б.
10. Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. Иккинчи китоб. – 272 б.

III. Monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari:

11. Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991-1992.
12. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Мумтоз адабиёт – ҳикмат хазинаси. – Бухоро, 2001.
13. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент, 1981.
14. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. -128 б.
15. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – 96 б.

- 16.Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати. –Тошкент: Ўқитувчи. 1994. -272 б.
- 17.Лихачёв Д.С. Текстология. –М.: Наука, 1964. -102 с.
- 18.Мадраимов А, Фузаилова. Г. Манбашунослик. –Тошкент: Фан, 2007. - 294 б.
- 19.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. - Тошкент: Фан, 1978.
- 20.Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
- 21.Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. -168 б.
- 22.Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. -118 б.
- 23.Пирназаров М. Поэтик жанрлар типологияси. –Тошкент: Фан, 1989. - 122 б.
- 24.Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. –Тошкент: Фан, 1978. -152 б.
- 25.Толстов С. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Тошкент, 1964.
- 26.Фозилов Э.И. Носируддин Рабғузий ва унинг “Қиссаси Рабғузий” асари. Китобда: “Қиссаси Рабғузий”. - Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
- 27.Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. –Тошкент: Фан, 1986. -164 б.
- 28.Эркинов А. Матншуносликка кириш. –Тошкент, 1997. -50 б.
- 29.Ўзбек адабиёти тарихи (XVI асрдан XVIII асрнинг 70- йилларигача). Беш томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1978. – 152 б.
- 30.Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Тошкент: ТошДШИ, 2000. -172 б.
- 31.Ҳайдаров С. Дурбек ва унинг “Юсуф ва Зулайхо” достони. Китобда: Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. – Тошкент, 1959.
- 32.Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. -330 б.

33.Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - Б.169.

34.Хусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. -346 б.

35.Қаюмов А. Қадимият обидалари. - Тошкент, 1972.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

36.Остонакулов И. “Қисас ар-Рабғузий – адабий асар: Филология фанлари номзоди... дисс. // Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 1993. - 129 б.

37.Сафарова Ҳ.А. Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддик алайҳиссалом” асари манбалари ва ғоявий-бадий таҳлили: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун такдим этилган дис. автореф.: // А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университети. – Самарқанд, 2001. - 33 б.

V. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va ilmiy to‘plam tezislari:

38.Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий”да полисемантик сифатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2009. - № 3 –Б. 73-75.

39.Равшанова Г. “Юсуф ва Зулайхо” қиссасининг дастлабки манбалари // ҚарДУ хабарлари. – Қарши, 2013. - № 1. – Б. 74-76.

40.Сафарова Ҳ. Рабғузий ҳикоятлари – ноёб маънавий хазина // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1999. - № 3. –Б. 81-83.

41.Эшонбобоев А. Матншунослик ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. - № 2. – Б. 45-48.

42.Юнусов А. “Қиссаси Рабғузий”нинг қўлёзма нусхалари // Адабий мерос, 1989. - № 3 (99). - Б. 73-97.

43.Ҳайитов Ш., Ҳайитова Г. Илоҳий қиссалар жозибаси // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2000. -№4 –Б. 46-52.

VI. Lug’atlar:

44.Навоий асарлари луғати (Алишер Навоий асарларининг 15 томлигига илова). –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. -583 б.

45. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 1-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -576 б.
46. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 2-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -602 б.
47. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 3-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -632 б.
48. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 4-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -672 б.
49. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 5-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -597 б.

VII. Elektron resurs manbalari:

50. www.ziyo.uz.
51. www.ziyonet.uz.
52. www.isa.sari.com.